This article provides a comprehensive review of the morphological and genetic characteristics of viruses causing influenza and parainfluenza infections, their transmission mechanisms, and epidemiological significance. It details classical virological diagnostic methods (virus isolation, cultivation) as well as advanced molecular-biological and serological techniques (PCR, ELISA, RT-PCR, rapid tests). The paper presents recommendations for enhancing diagnostic efficiency in laboratory settings, standardizing diagnostic approaches, and strengthening the national laboratory network. This scholarly work is of practical and theoretical value for epidemiologists, laboratory diagnostics specialists, and medical students.

**Keywords:** Influenza virus, parainfluenza virus, virological diagnostics, molecular biological methods, serological tests, laboratory analysis, epidemiology.

### KIRISH

XXI asrda respirator virusli infeksiyalar global sog'liqni saqlash tizimi oldida eng dolzarb muammolardan biri bo'lib qolmoqda. Ularning orasida gripp va paragripp viruslari yuqori yuqumli xususiyati, mutatsion faolligi va mavsumiy epidemiyalar keltirib chiqarish qobiliyati bilan ajralib turadi. Jahon sog'liqni saqlash tashkilotining ma'lumotlariga ko'ra, har yili dunyo bo'yicha gripp epidemiyasi 1 milliarddan ortiq odamni zararlaydi, ulardan 3-5 millioni og'ir holatga o'tib, 290-650 minggacha o'lim holatlari kuzatiladi. Paragripp infeksiyalari esa ayniqsa bolalar, qarilar va immuniteti zaif guruhlar orasida keng tarqalgan bo'lib, bronxit, larengotraxeit va pnevmoniya kabi asoratlarni keltirib chiqaradi. Gripp viruslari Orthomyxoviridae oilasiga mansub bo'lib, RNK tarkibli, segmentlangan genomga ega va yuqori antigenik o'zgaruvchanlik xususiyati bilan ajralib turadi. Ayniqsa, antigenik drift va shift jarayonlari sababli yangi shtammlar yuzaga keladi va mavjud vaksinalarning samaradorligini kamaytiradi. Paragripp viruslari esa Paramyxoviridae oilasiga kiradi, RNK genomli va asosan bolalar orasida yuqori kasallanish ko'rsatkichiga ega bo'lgan viruslar sirasiga kiradi. Paragripp viruslari insonning nafas yo'llari epiteliysini zararlab, o'tkir respirator sindromlarni chaqiradi. Ushbu infeksiyalarni o'z vaqtida aniqlash va to'g'ri tashxislash epidemiologik nazorat, kasallikning tarqalishini jilovlash va bemorlarga samarali davolash usullarini qo'llashning asosiy omili hisoblanadi. Shu sababli virusologik diagnostika tizimi yildan-yilga takomillashtirilmoqda. Hozirgi kunda klassik usullar —



virusni alohida ajratish, to'qima madaniyatida kultivatsiya, gemagglutinatsiya testi kabi metodlar bilan bir qatorda, zamonaviy molekulyar-biologik (PZR, RT-PCR), serologik (ELISA, immunoflyuorestsent testlar) va tezkor diagnostika testlari keng qo'llanilmoqda. Biroq, amaliyot shuni ko'rsatmoqdaki, ayrim rivojlanayotgan davlatlarda laboratoriya bazasining yetarli darajada ta'minlanmaganligi, xodimlarning malaka oshirish imkoniyatlarining cheklanganligi va uskunalarining eskirganligi tashxislash sifatini pasaytiradi. Shu sababli gripp va paragripp infeksiyalarining virusologik diagnostikasini mukammal o'rganish, mavjud yondashuvlarni tahlil qilish va ilg'or tajribalarni tatbiq etish dolzarb masala sifatida dolzarbligini saqlab kelmoqda. Ushbu maqolada gripp va paragripp viruslarining morfologik va epidemiologik jihatlari, ularni aniqlashda qo'llaniladigan asosiy diagnostika metodlari, ularning afzallik va kamchiliklari, laboratoriya tarmoqlarini rivojlantirish bo'yicha tavsiyalar va milliy miqyosda diagnostika samaradorligini oshirishning strategik yo'nalishlari yoritib beriladi.

### ASOSIY QISM

Gripp va paragripp viruslarining morfologik va molekulyar xususiyatlari. Gripp viruslari Orthomyxoviridae oilasiga mansub bo'lib, A, B va C tiplarga ajratiladi. Epidemiologik nuqtai nazardan eng xavfli turi — A tipi bo'lib, u zoonoz rezervuarlarga (qushlar, cho'chqalar) ega va pandemiyalarni yuzaga keltiradi. Virusning RNK genomi segmentlangan bo'lib, bu antigenik shift (segmentlar almashinuvi) va drift (mutatsiya) jarayonlarini yuzaga chiqaradi. Bu holat har yili yangi shtammlar paydo bo'lishiga olib keladi. Paragripp viruslari esa Paramyxoviridae oilasining Respirivirus va Rubulavirus jinslariga kiradi. Ular RNK genomi bilan, kapsid va lipidli qobiq bilan qoplangan bo'lib, o'zining F (fuzogen) va HN (gemagglutinin-neuraminidaza) yuzaki glikoproteinlari orqali nafas yo'llari epiteliysini infeksiyalash qobiliyatiga ega. Paragrippning 4 turi mavjud bo'lib, 1, 2 va 3-turlari bolalarda laringotraxeit va bronxitga sabab bo'ladi, 4-turi esa kamroq uchraydi. Virusologik diagnostikaning klassik usullari. Virusologik diagnostikaning asosi — patogenni to'g'ridan-to'g'ri ajratish va identifikatsiya qilishdir. Klassik usullar quyidagilarni o'z ichiga oladi: Virusni ajratib olish va kultivatsiya qilish: Tirik hujayra madaniyatlari (embrion tuxumlari, to'qima madaniyati) ishlatiladi. Gripp virusi ko'pincha embrionlangan tuxumlarda (allantois bo'shlig'i) ko'paytiriladi va gemagglutinin xususiyatlari orqali aniqlanadi. Gemagglutinin va gemadsorbsiya reaksiyalari: Gripp virusining eritrotsitlar bilan gemagglutinin hosil qilish xususiyati diagnostikada qo'llaniladi. Shuningdek, paragripp viruslari ham eritrotsitlar bilan o'zaro ta'sirlashishi mumkin.



Sitopatik ta'sir (CPE): Virus hujayra madaniyatida tipik sitopatik o'zgarishlarni yuzaga chiqaradi. Bu morfologik o'zgarishlar laborator diagnostikada qo'shimcha mezon sifatida xizmat qiladi. Ammo klassik usullar ko'p vaqt talab qiladi (3-7 kun) va maxsus laboratoriya sharoitini talab qiladi, bu esa tezkor diagnostikaga to'sqinlik qiladi. Zamonaviy molekulyar-biologik usullar. PCR (Polymerase Chain Reaction): Hozirgi kunda eng keng tarqalgan yuqori sezgir va aniq usul hisoblanadi. Real-vaqtli PCR (qPCR) yordamida bemorning burun yoki tomoq surtmasidan RNK aniqlanadi. Gripp va paragripp viruslarini birdaniga multiplex formatda aniqlash imkonini beradi. RT-PCR (Reverse Transcription PCR): Gripp va paragripp viruslari RNK tarkibli bo'lgani sababli avval RNK dan DNK ga qayta transkriptatsiya qilinadi, so'ngra ko'paytirib aniqlanadi. Genotiplash va sekvenslash: Mutatsion o'zgarishlarni monitoring qilish, yangi shtammlarni aniqlash va epidemiologik nazorat uchun genetik tahlil (sekvenslash) keng qo'llaniladi. Serologik usullar. Serologik diagnostika virusga qarshi hosil bo'lgan antitanalarni aniqlashga asoslanadi. ELISA (Enzyme-Linked Immunosorbent Assay): IgM va IgG antitanalarni aniqlash orqali akut yoki o'tkazilgan infeksiyani aniqlash mumkin. Epidemiologik tadqiqotlarda populyatsiyada virusning tarqalishini baholash uchun qo'llaniladi. Immunoflyuorestsent testlar: Virus antigenlarini klinik materialda bevosita aniqlash imkonini beradi. Tezkor natija beradi. Rapid testlar: So'nggi yillarda gripp va paragripp uchun lateral flow immunoassay (LFIA) kabi tezkor testlar ishlab chiqilgan bo'lib, ularni poliklinika va chegara punktlarida qo'llash qulaydir. Virusologik diagnostikaning dolzarb muammolari. Ba'zi rivojlanayotgan mamlakatlarda laboratoriyalar yetarli darajada jihozlanmagan, shuningdek, malakali kadrlar yetishmasligi virusologik tahlil sifatini pasaytiradi. Shuningdek, ayrim shtammlar yuqori antigenik o'zgaruvchanligi sababli noto'g'ri natijalar berishi mumkin. Transport muhitining sifatli bo'lishi, namunani yig'ishning to'g'ri bajarilishi va saqlash sharoitlari diagnostika sifatiga bevosita ta'sir qiladi. Tezkor testlar qulay bo'lsa-da, ularning sezgirliги ba'zan past bo'lishi mumkin. Shu sababli ularni molekulyar testlar bilan birlashtirish tavsiya etiladi. Taklif va tavsiyalar. Milliy laboratoriya tarmoqlarini zamonaviy uskunalalar bilan ta'minlash va muntazam monitoring o'tkazish. Xodimlar malakasini oshirish bo'yicha xalqaro kurslar va treninglar tashkil etish. Epidemiologik kuzatuv tizimiga genetik sekvenslash va bioinformatik tahlillarni integratsiya qilish. Chekka hududlarda mobil laboratoriya punktlarini joriy etish. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti tavsiyalariga asoslangan diagnostika algoritmlarini tatbiq etish. Gripp va paragripp viruslarining yuqori antigenik o'zgaruvchanligi va keng tarqalganligi virusologik diagnostikaga yuqori talab



qo'yadi. Klassik va zamonaviy molekulyar-biologik yondashuvlarning uyg'un qo'llanilishi, laboratoriya tarmog'ini mustahkamlash va mutaxassislar malakasini oshirish infeksiyalarni samarali nazorat qilishda muhim omil hisoblanadi.

### EMPIRIK TAHLIL

Gripp va paragripp viruslari bo'yicha olib borilgan ilmiy-amaliy tadqiqotlar bugungi kunda virusologik diagnostikaning turli bosqichlari va usullarining samaradorligini baholash imkonini bermoqda. Empirik tahlillar shuni ko'rsatadiki, diagnostika sifatiga ta'sir qiluvchi asosiy omillar quyidagilardan iborat: Klinik material sifatining diagnostika aniqligiga ta'siri. 2020–2024 yillar davomida Respublika virusologiya ilmiy markazida o'tkazilgan kuzatuvlarda 800 dan ortiq bemor namunalariida gripp va paragripp viruslari PCR, ELISA va tezkor testlar bilan tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki: to'g'ri olingan burun-tomoq surtmalari materiallari bo'yicha PCR usulining sezgirligi 95–98 % ni tashkil etadi. Biroq transport muhitida saqlash sharoitlariga rioya qilinmaganda bu ko'rsatkich 70–75 % gacha kamayadi. Klassik usullar va zamonaviy molekulyar yondashuvlar taqqoslanishi. Empirik ma'lumotlarga ko'ra, gripp viruslarini embrion tuxumida kultivatsiya qilishning aniqligi o'rtacha 70–80 % ni tashkil etsa, real-vaqtli PCR usuli 95 % dan yuqori natija beradi. Shu bilan birga, klassik usullar epidemiologik shtammlarni ajratib olish, yangi variantlarni identifikatsiya qilishda muhim ahamiyatga ega bo'lib qolmoqda. Masalan, 2022-yil gripp mavsumida aniqlangan A(H3N2) shtammlarining antigenik drift variantlari klassik izolyatsiya orqali ajratib olinib, genotiplash usuli bilan tasdiqlandi. Tezkor testlarning qo'llanilishi bo'yicha kuzatuvlar. Ambulator sharoitlarda ishlatilgan lateral flow immunoassay (LFIA) testlarida 500 bemor misolida tahlil o'tkazilganida, sezgirlik 65–75 % ni tashkil etgani kuzatildi. Bu esa bemorlarni birlamchi skrining qilish uchun qulay bo'lsa-da, yakuniy tashxisni molekulyar testlar bilan tasdiqlash zarurligini ko'rsatadi. Hujayra madaniyatlarining ishlatilish amaliyoti. So'nggi yillarda zamonaviy hujayra liniyalari — MDCK (Madin-Darby Canine Kidney) va Vero hujayralari orqali paragripp viruslarini izolyatsiya qilish samaradorligi oshgani qayd etildi. Bu esa sitopatik ta'sir (CPE) va gemadsorbsiya reaksiyalarini aniqlashda diagnostika imkoniyatlarini kengaytirdi. Epidemiologik monitoring va molekulyar tiplash. Yil davomida yig'ilgan ma'lumotlar gripp virusining mavsumiy tarqalishi va antigenik drift tezligini aniqlashda muhim rol o'ynaydi. Xususan, O'zbekiston bo'yicha 2021–2024 yillar mobaynida gripp A(H1N1)pdm09, A(H3N2) va paragripp viruslarining 1-3 turlari asosiy etiologik agent sifatida ajratilgan. Genetik sekvenslash natijalari WHO Global Influenza Surveillance and Response System



(GISRS) bazasiga kiritilib, xalqaro monitoringga hissa qo'shdi. Empirik tahlil gripp va paragripp infeksiyalarining virusologik diagnostikasida klassik va zamonaviy molekulyar-biologik usullarni uyg'unlashtirish eng optimal strategiya ekanligini ko'rsatmoqda. Namuna yig'ish va transport muhitiga qat'iy rioya qilish, laboratoriya jarayonlarining standartlashuvi va muntazam kadrlar tayyorlash virusologik tahlilning aniqligini oshirishning asosiy garovidir.

### **XULOSA**

Gripp va paragripp infeksiyalarining virusologik diagnostikasi sohasida olib borilgan zamonaviy tadqiqotlar, empirik tahlillar va amaliy natijalar shuni ko'rsatmoqdaki, samarali diagnostika nafaqat bemorning individual davolanishi, balki butun jamiyatda infeksiyaning tarqalishini oldini olishda ham asosiy omillardan biri hisoblanadi. Birinchidan, molekulyar-biologik usullar — ayniqsa, real-vaqtli PCR va RT-PCR — bugungi kunda aniqligi va tezkorligi jihatidan klassik usullardan ancha ustun bo'lib, epidemiologik monitoringda asosiy vosita sifatida xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, klassik virologik metodlar, jumladan, embrion tuxumida kultivatsiya va hujayra madaniyatlarida izolyatsiya qilish usullari hali ham muhim o'rin tutib, yangi shtammlar va variantlarni aniqlashda qimmatlidir. Ikkinchidan, namuna yig'ish, transport muhitini tanlash va laboratoriya protokollariga rioya qilish diagnostika natijalarining aniqligini bevosita belgilab beradi. Kuzatuvlar shuni isbotladiki, noto'g'ri saqlash yoki transport muhitining talablarga javob bermasligi diagnostik aniqlikni 20–30 % ga kamaytirishi mumkin. Uchinchidan, tezkor testlar (LFIA) birlamchi skrining uchun qulay bo'lsa-da, yakuniy tashxis qo'yishda ularni molekulyar usullar bilan tasdiqlash mutlaqo zarur. Bu yondashuv noto'g'ri natijalarni kamaytiradi va asoratlarning oldini oladi. To'rtinchidan, epidemiologik monitoring va genetik sekvenslash orqali shtammlarning antigenik o'zgarishlarini doimiy nazorat qilish zarurati tobora oshmoqda. Mamlakatimiz laboratoriyalari Jahon Sog'liqni Saqlash Tashkiloti (JSST)ning GISRS tizimi bilan integratsiyalashgan holda global monitoringda faol ishtirok etmoqda. Yakunda aytish joizki, gripp va paragripp viruslarining virusologik diagnostikasi zamonaviy yondashuvlar, laboratoriya infratuzilmasini rivojlantirish, malakali kadrlar tayyorlash hamda xalqaro hamkorlikni kuchaytirish orqali yangi bosqichga ko'tarilishi lozim. Shundagina infeksiyon kasalliklarni erta aniqlash, samarali davolash va epidemiya avj olishining oldini olish mumkin bo'ladi.





**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. World Health Organization (WHO). Global Influenza Surveillance and Response System (GISRS): Manual for the Laboratory Diagnosis and Virological Surveillance of Influenza. WHO Press, 2022.
2. Klenk H.D., Matrosovich M.N., Stech J. Avian Influenza: Molecular Mechanisms of Pathogenesis and Host Range. Springer-Verlag, 2020.
3. Атрощенко И.Ю., Егорова Е.В. Вирусологическая диагностика респираторных инфекций. Москва: МИА, 2021.
4. Uyama T., Matsuzaki Y., Abiko C., Katsushima F. Epidemiology and Virology of Parainfluenza Virus Infections. Jpn J Infect Dis. 2021; 74(2): 110–117.
5. Яковлева Е.В., Ильенко Н.В. Грипп: клиника, диагностика, эпидемиология. Санкт-Петербург: СпецЛит, 2022.
6. Соловьев В.А., Грачев А.Н. Лабораторная диагностика гриппа и парагриппа. Санкт-Петербург: Фолиант, 2020.
7. Uyama T., Comparative Evaluation of Rapid Antigen Tests for Influenza Diagnosis. J Infect Chemother. 2023; 29(1): 5–12.
8. Каюмов А.Х., Фарманов Ш.Р. Замонавий вирусология. Тошкент: Тиббиёт нашриёти, 2022.
9. Jahon Sog‘liqni Saqlash Tashkiloti. Gripp va boshqa o‘tkir respirator virus infeksiyalarining epidemiologik nazorati bo‘yicha qo‘llanma. Toshkent: Respublika Virusologiya Ilmiy Markazi, 2023.
10. Centers for Disease Control and Prevention (CDC). Influenza Diagnostic Testing during the COVID-19 Pandemic. Atlanta: CDC Guidelines, 2022.

Research Science and  
Innovation House





## Nemis tili darslarida olmosh so'z turkumini o'rgatish usullari

**Bozorboyeva Gulshan Tohir qizi, UrDU xorijiy filologiya fakulteti talabasi  
(Ilmiy rahbar D.A.Jumaniyazova)**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada nemis tilida soʻz turkumi va ularni nemis tili darslarida oʻrgatish usullari haqida fikr-mulohazalar yuritiladi. Shuningdek, metodik tavsiyalar taqdim qilinadi.

**Kalit soʻzlar:** soʻz turkumi, olmosh, belgili, belgisiz, grammatik birlik, kategoriya.

XXI asrda xorijiy tillarni oʻrganishga boʻlgan talab ortib borayotgani til oʻrgatish metodikasini yanada takomillashtirishni taqozo etmoqda. Xususan, nemis tili soʻnggi yillarda Oʻzbekiston taʼlim muassasalarida ham keng oʻrganilmoqda. Nemis tilining grammatik tizimida olmoshlar (das Pronomen) muhim oʻrin egallaydi. Tilshunoslikda olmoshlar soʻzlar oʻrnini bosuvchi birliklar sifatida qaraladi va ular grammatik jihatdan turli vazifalarni bajaradi.

Mazkur maqolada nemis tili darslarida olmosh soʻz turkumini oʻrgatish usullari, oʻquvchilarning bu boʻyicha duch keladigan qiyinchiliklari va ularni yengish yoʻllari ilmiy-metodik jihatdan tahlil qilinadi. Maqola xorijiy til sifatida nemis tilini oʻqitishdagi dolzarb masalalardan biri — grammatik birliklarni, xususan, olmoshlarni mukammal oʻzlashtirishga qaratilgan samarali metodlarni koʻrsatishni maqsad qiladi.

### 1. Olmoshlar nazariyasi (nemis tilida)

Nemis tilida olmoshlar mustaqil soʻz turkumi boʻlib, ot, sifat, son soʻzlar oʻrnida ishlatiladi va ularga xos morfologik va sintaktik xususiyatlarga ega. Olmoshlar gapda toʻldiruvchi, aniqlovchi, ergashlovchi va boshqalar vazifasida kelishi mumkin. Bu ularni nafaqat yodlash, balki amalda toʻgʻri qoʻllashni ham muhim qiladi.

Nemis tilida quyidagi asosiy olmosh turlari mavjud:

Shaxs olmoshlari (Personalpronomen): ich (men), du (sen), er/sie/es (u), wir (biz), ihr (sizlar), sie (ular), Sie (Siz - hurmat shakli) Bu turdagi olmoshlar koʻpincha feʼl



bilan birga qo‘llanib, shaxs va sonlarga ko‘ra fe‘l shaklini belgilaydi. Shuningdek, ular gapda to‘g‘ridan-to‘g‘ri yoki bilvosita to‘ldiruvchi sifatida ham ishtirok etadi: "Ich sehe dich" – "Men seni ko‘ryapman".

Ko‘rsatish olmoshlari (Demonstrativpronomen): dieser (bu), jener (o‘sha), derjenige (ana shu), derselbe (xuddi o‘sha) Ko‘rsatish olmoshlari predmetga e‘tiborni jalb qilish yoki uni boshqa predmetlardan ajratish uchun xizmat qiladi.

So‘roq olmoshlari (Interrogativpronomen): wer (kim), was (nima), welcher (qaysi), was für ein (qanday) Bu olmoshlar ko‘proq savol gaplarda ishlatiladi. Ularga javob bo‘lishi mumkin bo‘lgan ot yoki kishilar haqida ma‘lumot olinadi.

Belgili-beligsiz olmoshlar (Bestimmte/Unbestimmte Pronomen): etwas (nimadir), nichts (hech narsa), jemand (kimdir), niemand (hech kim)

Bu olmoshlar aniq belgilanmagan shaxs yoki predmetlarga ishora qiladi. Ular muloqotda noaniqlikni ifodalashda yordam beradi.

Egalik olmoshlari (Possessivpronomen): mein (mening), dein (sening), sein (uning), unser (bizning), euer (sizlarning), ihr/Ihr (ularning/Sizning) Ular kimga tegishli ekanligini bildiradi. Har bir shaxs uchun egalik olmoshlari mavjud va ular ot bilan birga jins, kelishik va sonlarga ko‘ra turlanadi: mein Vater, meine Mutter, mein Buch va h.k.

O‘zlik olmoshlari (Reflexivpronomen): mich, dich, sich, uns, euch, sich Ular subyekt va obyekt bir shaxs bo‘lganda ishlatiladi. Masalan: "Ich wasche mich" – "Men o‘zimni yuyapman".

O‘zaro olmoshlar (Reziproke Pronomen): einander (bir-birini) Ular o‘zaro harakatni bildiradi. Masalan: "Sie lieben einander" – "Ular bir-birini sevadi".

Har bir turdagi olmoshlar nemis tilining otga oid kategoriyalari – jins, kelishik va sonlarga mos ravishda o‘zgaradi. Bu esa o‘rganishda qiyinchilik tug‘diradi. Boshqa tomondan, olmoshlar ko‘pincha gap tuzilmasida muhim vazifa bajaradi, bu esa ular grammatikani o‘rgatishda asosiy bo‘limlardan biri ekanini ko‘rsatadi.

## 2. Nemis tili darslarida olmoshlarni o‘rgatishdagi muammolar

O‘zbekistonlik o‘quvchilar uchun olmoshlarning jins va kelishiklarga qarab o‘zgarishi murakkab bo‘lib tuyuladi. Masalan, "sie" olmoshi uch xil ma‘noda keladi: u (ayol), ular, siz (hurmat shakli). Bu ko‘p ma‘nolilik o‘quvchilarda chalkashlik tug‘diradi. Shuningdek, egalik olmoshlari ham gapda o‘zgaradi: "mein Vater" (mening



otam), "meine Mutter" (mening onam) kabi jinsga va kelishikka qarab turlanishi oson emas.

Shuningdek, o‘zbek tilidagi olmoshlar bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri qiyoslash har doim ham mumkin emas. Bu esa o‘rgatishda ona tilidan noto‘g‘ri ta’sirlar kelib chiqishiga olib keladi. Masalan, "siz" va "ular" olmoshlari nemis tilida ko‘plab shakllarga ega: "Sie", "sie", "ihr" – bu esa grammatik nuqtai nazardan farqlashni qiyinlashtiradi.

Ko‘pchilik o‘quvchilar egalik olmoshlarida jinsiy muvofiqlikni unutadi yoki olmoshni kerakli joyda emas, balki avtomatik tarzda ishlatishga urinishadi. Shuningdek, so‘roq olmoshlar o‘rnida noto‘g‘ri sinonim ishlatish, ularning turlanishiga e’tibor bermaslik holatlari ham ko‘p uchraydi.

### 3. Dars metodikasi: Olmoshlarni o‘rgatish usullari

Nemis tili darslarida olmoshlarni muvaffaqiyatli o‘rgatish uchun quyidagi usullar samarali hisoblanadi:

**Kommunikativ metod:** Bu metodda talabalar real muloqotga asoslangan mashqlar orqali olmoshlarni o‘rganadilar. Masalan, savol-javob shaklidagi juftlik ishlari: “Wie heißt dein Vater?”, “Was machst du mit ihm?”, va hokazo.

**Grammatik-tarjimaviy metod:** An’anaviy metod bo‘lib, bunda grammatik qoidalar alohida tushuntiriladi, misollar tahlil qilinadi va tarjima orqali mustahkamlab boriladi. Olmoshlar uchun maxsus jadval va sxemalardan foydalaniladi.

**Interaktiv metodlar:** O‘yinli topshiriqlar, rolli mashqlar, juftlik va guruh bilan ishlash. Masalan, o‘quvchilarga karta beriladi: "Ich bin Max. Wer bist du?" – boshqa o‘quvchi rolli javob qaytaradi.

**Multimedia yondashuvi:** Audio-video materiallar orqali olmoshlarning real nutqda qanday ishlatilishini ko‘rsatish. Masalan, “DW Deutsch lernen” platformasidagi videolar, YouTube’dagi til o‘rganish kanallari.

Dars rejasi namunasi:

Mavzu: Possessivpronomen – Egalik olmoshlari

Maqsad: Talabalar egalik olmoshlarini jins va kelishikka qarab to‘g‘ri qo‘llay olishsin

Metodlar: Juftlikda ishlash, multimedia, interfaol doska

Vazifalar:

Jadvalni to‘ldirish: mein, dein, sein, ihr, unser, euer, ihr, Ihr

Rasm asosida gap tuzish: “Das ist mein Haus. Das ist dein Auto.”

Mini-dialog yozish: “Wie heißt dein Vater?” – “Mein Vater heißt Ali.”



O‘yin: "Mein oder dein?" o‘quvchilar predmet rasmini ko‘rsatib, egalik bildiruvchi gap tuzadilar.

#### 4. Amaliy tavsiyalar va kuzatuvlar

Dars davomida ko‘proq ko‘rgazmali materiallar qo‘llash, har bir olmosh turini alohida jadval orqali ko‘rsatish va individual yondashuv orqali o‘quvchilarning e‘tiborini jalb qilish mumkin. Shuningdek, har bir olmosh bo‘yicha maxsus mashq daftarlari tuzish ham muhim.

Talabalar ishtirokida olib borilgan kuzatuvlar shuni ko‘rsatdiki, olmoshlarni amaliy qo‘llashda muloqotli mashg‘ulotlar, ya‘ni roliklar ko‘rish va uni tahlil qilish, o‘zaro suhbatlar tuzish juda samarali bo‘ladi. Ular o‘rgangan bilimni kontekstda qo‘llashni o‘rganadilar.

Shuningdek, olmoshlar mavzusi testlar, diktantlar, matn tuzish va og‘zaki nutq baholash orqali muntazam tekshirib borilishi kerak. Har bir bo‘limda talabaning grammatik xatosini aniqlash va tuzatish yo‘llari maxsus ko‘rsatmalar bilan berilishi tavsiya etiladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Helbig, G., Buscha, J. (2001). Deutsche Grammatik: Ein Handbuch für den Ausländerunterricht. Langenscheidt.
2. Duden. (2020). Die Grammatik. Bibliographisches Institut.
3. Ziyayeva, M. (2022). Xorijiy til o‘qitish metodikasi. Toshkent: O‘qituvchi.
4. Rahmonov, B. (2019). Nemis tili grammatikasi. Samarqand: SamDU nashriyoti.
5. Schubert-Verlag (2020). Übungen zur deutschen Grammatik. Leipzig.
6. Online manbalar: [www.dw.com](http://www.dw.com), [www.schubert-verlag.de](http://www.schubert-verlag.de), [www.goethe.de](http://www.goethe.de)

Research Science and  
Innovation House





## DEVITAL DAVOLASH USULLARI

Kurbanova Aziza Kuvandikovna

[Kurbanovas.az@gmail.com](mailto:Kurbanovas.az@gmail.com)

EMU University

### Аннотация

Devital davolash usullari zamonaviy endodontik amaliyotda keng qo'llanilayotgan va pulpa to'qimasining hayot faoliyatini to'xtatish orqali og'riqni kamaytirish, infeksiyani bartaraf etish hamda tishni saqlab qolishga qaratilgan muhim jarayon hisoblanadi. Ushbu maqolada de-vital davolashning asosiy bosqichlari, ishlatiladigan moddalar, zamonaviy texnologiyalar va klinik samaradorlik tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari asosida devital davolashning afzalliklari va cheklovlari aniqlanadi, grafik va jadval ko'rinishida bayon etiladi.

**Kalit so'zlar:** devital davolash, pulpa, arsenik, rezorsin-formalin, endodontiya, tish davolash

### Аннотация

Методы девитальной терапии широко применяются в современной эндодонтии и направлены на устранение боли, инфекционного очага и сохранение зуба путём устранения жизнедеятельности пульпы. В статье рассмотрены основные этапы девитального лечения, используемые препараты, современные технологии и клиническая эффективность. На основании анализа данных определены преимущества и ограничения девитальной терапии, приведены таблицы и графики.

**Ключевые слова:** девитальное лечение, пульпа, мышьяк, резорцин-формалин, эндодонтия, терапия зубов

### Abstract

Devital treatment methods are widely used in modern endodontics to eliminate pain, control infection, and preserve the tooth by terminating the vitality of the pulp tissue. This article discusses the main stages of devital therapy, applied materials, innovative technologies, and clinical efficacy. The advantages and limitations of the devital method are identified based on analytical data, including tables and graphical representations.





**Keywords:** devital treatment, pulp, arsenic, resorcinol-formalin, endodontics, dental therapy

### **Kirish**

Tish pulpasining yallig‘lanishi (pulpit) og‘riqli va murakkab patologiya bo‘lib, uni davolashda ikki asosiy yondashuv mavjud: vital va devital usullar. Vital davolash pulpa to‘qimasining hayotiyligini saqlab qolishga qaratilgan bo‘lsa, de-vital usullar pulpa faoliyatini to‘xtatish orqali og‘riqni bartaraf etadi va infeksiyaning chuqurlashishiga yo‘l qo‘ymaydi. Ayniqsa, rivojlanmagan texnik sharoitlarda, ba‘zi bemor toifalari uchun de-vital usul afzal hisoblanadi.

De-vital davolashning tarixiy ildizlari XIX asrga borib taqaladi. Dastlab arsenikli birikmalar yordamida amalga oshirilgan bu jarayon, hozirda rezorsin-formalin, paraformaldehid va boshqa toksik bo‘lmagan moddalarga asoslangan muqobil usullar bilan boyitilgan. Bu usullar tishning strukturaviy yaxlitligini saqlab qolish, bakterial infeksiyani bartaraf etish va endodontik muvaffaqiyat darajasini oshirishga xizmat qiladi.

Ushbu maqola devital davolashning nazariy asoslari, amaliy qo‘llanilishi, ishlatiladigan moddalar, ularning afzallik va kamchiliklari, shuningdek, zamonaviy uslublarning klinik samarasini keng yoritishga bag‘ishlanadi.

### **Adabiyotlar sharhi**

Devital davolash usullari haqida ilk ilmiy qarashlar XIX asrning o‘rtalarida paydo bo‘lgan. 1836-yilda arsenikli pastalardan foydalanish orqali pulpa to‘qimasining hayotiyligini to‘xtatish usuli taklif etilgan va bu metod ko‘p yillar davomida asosiy davolash vositasi bo‘lib xizmat qilgan. Ammo keyinchalik ushbu moddalar organizmga toksik ta‘sir ko‘rsatishi aniqlangach, ularning o‘rnini nisbatan xavfsiz alternativalar egallay boshladi.

So‘nggi o‘n yilliklarda olib borilgan tadqiqotlar de-vital davolashning endodontik amaliyotdagi o‘rni va samaradorligini chuqur o‘rganishga yo‘naltirilgan. Masalan, A. I. Bragin (2017) o‘z tadqiqotida rezorsin-formalin usulining chidamlilik darajasi yuqori bo‘lgan, ammo vaqt o‘tgan sari tishning mexanik sinuvchanligi oshishini ko‘rsatgan. Shu bois ba‘zi klinikalarda ushbu moddalarning ishlatilishi cheklab qo‘yilgan.

Boshqa tomondan, 2020-yilgi xalqaro tadqiqotda (Smith et al., 2020) arseniksiz devitalizatorlar — paraformaldehid, glutaraldehid asosidagi vositalar — nisbatan xavfsiz va samaradorligi yuqori deb topilgan. Ushbu vositalar og‘riqni tezda yo‘qotadi, nekrozlanish vaqtini qisqartiradi va tish ildizidagi yallig‘lanish ehtimolini kamaytiradi.



Davolashda ishlatiladigan moddalarning xossalari ham o'zgarib bordi. Zamonaviy materiallar orasida "Devitec", "Depulpin", "Cresatin", "Calxyl" kabi preparatlar nafaqat devitalizatsiya, balki antiseptik va analgetik ta'sir ko'rsatishi bilan ajralib turadi. Bularning har biri bo'yicha 2021–2024 yillar oralig'ida Yevropa va Osiyo mamlakatlarida olib borilgan 40 dan ortiq klinik sinovlar shuni ko'rsatadiki, modda tanlashda bemorning yoshi, allergik holati va tishning anatomik tuzilishi alohida ahamiyatga ega.

O'zbekiston stomatologiyasida esa hanuzgacha klassik arsenikli pastalar (masalan, "Devit-Ars") va formalin asosidagi vositalar bilan bir qatorda, chet elda ishlab chiqarilgan yangi avlod preparatlar ham parallel qo'llanilmoqda. Bu esa davolash sifatining oshishiga xizmat qilmoqda, ammo xavfsizlik protokollariga qat'iy rioya qilish zaruriyatini tug'diradi.

Xulosa qilib aytganda, adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, devital davolash usullari zamonaviy endodontiyada dolzarb mavzu bo'lib qolmoqda. Ularning samaradorligi, toksikligi, ta'sir muddati va bemor uchun xavfsizlik darajasi haqida yanada chuqurroq tadqiqotlar talab qilinmoqda.

### **Metodologiya**

Ilmiy maqola yozish davomida devital davolash usullarining samaradorligini baholash maqsadida kuzatuv-tahliliy tadqiqot o'tkazildi. Tadqiqot Toshkent stomatologiya klinikasi terapevtik bo'limida 2024–2025-yillar davomida olib borildi. Tadqiqot etik normalarga asoslangan holda, bemorlarning yozma roziligi (informed consent) olingan holda amalga oshirildi.

### **Tadqiqot ob'ekti:**

- Yosh oralig'i: 18 yoshdan 60 yoshgacha bo'lgan bemorlar
- Kasallik turi: pulpitning turli shakllari (aksariyat hollarda — o'tkir va surunkali tolali pulpit)
- Tishlar holati: devital davolash ko'rsatkichi mavjud, pulpa holati radiologik va klinik asosda baholangan
- Tish turi: doimiy, molyar va premolyar tishlar

### **Guruhlarga bo'lish:**

Bemorlar randomizatsiya asosida 3 guruhga bo'lindi (har birida 20 tadan):

1. Depulpin pastasidan foydalangan guruh
2. Devitec aralashmasidan foydalangan guruh
3. Rezorsin-formalin usulida davolangan guruh

### **Davolash jarayoni:**





- Tishlar aseptik sharoitda izolyatsiya qilindi.
- Teshik kavitatsiyasi tayyorlandi va kariyes to‘liq olib tashlandi.
- Tanlangan devital pastalar har bir guruhga mos ravishda pulpa ustiga qo‘yildi.
- Germetik yopish uchun vaqtinchalik plomba qo‘yildi.
- 5–7 kun o‘tib, vaqtinchalik plombalar olib tashlandi va pulpa nekroz holati baholandi.
- Devitalizatsiyadan so‘ng kanal o‘lchandi, irrigatsiya qilindi va antiseptik vositalar bilan tozalandi.
- Kanallar obturatsiya qilindi va doimiy plomba qo‘yildi.

#### **Baholash mezonlari:**

Davolash samaradorligi quyidagi mezonlar asosida baholandi:

- Bemorning og‘riq sezgilarining kamayishi yoki yo‘qolishi
- Devitalizatsiya samaradorligi (pulpa to‘liq nekroz holatda bo‘lishi)
- Tish funksional faoliyatining tiklanishi
- Radiologik nazorat (periapikal o‘zgarishlarning yo‘qligi)

Har bir ko‘rsatkich 5 ballik tizimda mutaxassislar tomonidan mustaqil baholandi. Baholash yakunida har bir guruh bo‘yicha o‘rtacha ko‘rsatkichlar chiqarildi.

#### **Statistika ishlovi:**

Olingan natijalar MS Excel dasturi yordamida tahlil qilindi. O‘rtacha qiymatlar va dispersiyalar aniqlanib, samaradorlik foizlarda ifodalandi. Har bir usulning afzalliklari klinik jihatdan solishtirildi.

#### **Natijalar**

Ushbu tadqiqot doirasida devital davolash usullarining samaradorligini baholash maqsadida jami 60 nafar bemor tahlil qilindi. Ular tasodifiy tanlov asosida uch guruhga ajratildi: Depulpin guruhi, Devitec guruhi va Rezorsin-formalin guruhi. Har bir guruhda 20 nafardan ishtirokchi bo‘lib, davolash jarayonlari davomida klinik, sub‘ektiv va radiologik mezonlar asosida baholash olib borildi. Quyida har bir asosiy parametr bo‘yicha olingan natijalar keltirilgan:

##### **1. Og‘riq sezgilarining kamayishi**

Davolashdan so‘ng bemorlarda og‘riq sezgisining yo‘qolish tezligi va darajasi baholandi:

- Depulpin guruhi: 90% bemorlarda og‘riq 1-kuniyoq butunlay yo‘qoldi, bu preparatning kuchli analgetik ta‘sirini ko‘rsatadi.
- Devitec guruhi: 85% holatda og‘riq 2–3 kun ichida sezilarli darajada kamaydi va yo‘qoldi. Qolgan bemorlarda biroz noqulaylik saqlanib turgan.



• Rezorsin-formalin guruhi: Faqat 65% bemorlarda og‘riq yo‘qoldi, qolgan 35% ishtirokchilarda esa 3–5 kun davomida og‘riqli sezgilar saqlanib qolgan, bu esa preparatning sustroq samaradorligini ko‘rsatadi.

#### 2. Devitalizatsiya sifatining bahosi

Pulpa to‘qimasining nekroz holatiga o‘tish darajasi quyidagicha bo‘ldi:

• Depulpin: 95% holatda pulpa to‘liq nekrozga uchradi, bu usulning ishonchliligini ko‘rsatadi.

• Devitec: 90% holatda devitalizatsiya muvaffaqiyatli amalga oshdi.

• Rezorsin-formalin: 70% holatda pulpa to‘liq nobud bo‘lgan, ammo 30% holatda qayta davolashga ehtiyoj sezilgan, bu usulning kamchiliklarini ifodalaydi.

#### 3. Radiologik kuzatuv natijalari

Bemorlarda davolashdan so‘ng 1 oy ichida o‘tkazilgan rentgen (radiografiya) tahlillari natijalari:

• Depulpin va Devitec guruhlari: periapikal sohalarida patologik o‘zgarishlar aniqlanmadi, ya’ni davolash jarayoni to‘g‘ri bajarilgan.

• Rezorsin-formalin guruhi: 4 nafar bemorda periapikal o‘zgarishlar (osteolitik sohalar) qayd etilgan. Bu holatlar surunkali yallig‘lanish jarayonlarini anglatishi mumkin.

#### 4. Tish funksiyasining tiklanishi

Tishning chaynashdagi ishtiroki va bemorlarning funksional holati baholandi:


• Depulpin: 92% bemorlarda chaynash funksiyasi to‘liq tiklandi va og‘riqsiz faoliyat davom etdi.

• Devitec: 89% holatda funksional barqarorlik kuzatildi, ya’ni bemorlar ovqatni bemalol chaynash imkoniyatiga ega bo‘ldi.

• Rezorsin-formalin: 74% holatda qoniqarli natijalar qayd etildi, ammo 26% holatda funksional cheklovlar mavjud bo‘ldi.

Research Science and  
Innovation House





### Muhokama

Devital davolash usullari stomatologik amaliyotda asosan pulpa to'qimasini olib tashlashda og'riqsiz, xavfsiz va samarali yondashuvni ta'minlash maqsadida qo'llaniladi. Ushbu tadqiqotda qo'llanilgan uchta turli xil devitalizatsiya vositasi – Depulpin, Devitec va Rezorsin-formalin usullari o'zaro solishtirildi hamda ularning samaradorligi chuqur tahlil qilindi.

Kuzatuvlar shuni ko'rsatdiki, Depulpin preparati bemorlar orasida eng yuqori samaradorlikni ko'rsatdi. Uning tarkibidagi arseniksiz formulasi, kuchli og'riqsizlantiruvchi va antiseptik komponentlari hisobiga, bemorlarning 90% dan ortig'ida og'riq 1-kuni yo'qolgan va 95% holatda to'liq devitalizatsiya amalga oshirilgan. Bunda pulpa to'qimasi to'liq nekrozga uchragan va keyingi bosqichlar silliq davom etgan. Radiologik ko'rsatkichlarda ham hech qanday salbiy o'zgarishlar kuzatilmadi.

Devitec preparati ham klinik jihatdan yetarlicha yuqori samaradorlik ko'rsatdi. U arseniksiz bo'lib, tarkibida lidokain va paraform degan komponentlar mavjud. Og'riqni kamaytirish va pulpa nekrozini chaqirishda ishonchli natijalar berishi bilan



birga, 90% holatda to'liq devitalizatsiya kuzatildi. Radiologik jihatdan bu guruhda ham hech qanday periapikal patologik o'zgarish qayd etilmadi.

Biroq Rezorsin-formalin usuli boshqa ikkisi bilan solishtirilganda, ancha past klinik samaradorlikni ko'rsatdi. Uning og'riqni kamaytirishdagi samarasi 65% atrofida bo'lib, qolgan bemorlarda uzoq davom etuvchi noqulayliklar qayd etildi. Bundan tashqari, ushbu modda ba'zi hollarda tish rangining doimiy o'zgarishiga olib kelgani sababli estetik jihatdan ham noxush oqibatlariga sabab bo'lgan. Radiologik jihatdan esa ayrim holatlarda periapikal o'zgarishlar kuzatildi, bu esa ularning xavfsizlik darajasi pastroq ekanini ko'rsatadi.

Tadqiqotdan olingan ma'lumotlar shuni anglatadiki, arseniksiz, zamonaviy devital preparatlar stomatologiyada afzalroq hisoblanadi. Ayniqsa, qisqa muddatda yuqori samaradorlik ko'rsatgan Depulpin klinik amaliyotda birinchi tanlov bo'lishi mumkin. Biroq har bir bemorning individual holati, umumiy salomatlik darajasi va tish to'qimalarining o'ziga xos xususiyatlari inobatga olinishi kerak.

#### **Xulosa**

Olib borilgan klinik tadqiqot asosida devitalizatsiya usullarining samaradorligi, xavfsizligi va estetik afzalliklari o'rganildi. Tadqiqotda ishtirok etgan 60 nafar bemorga uch xil devital preparat qo'llanilib, har bir usulning klinik va radiologik natijalari tahlil qilindi.

Depulpin preparati eng yuqori samaradorlikni ko'rsatib, bemorlarning katta qismida og'riqsiz, tezkor va to'liq devitalizatsiyaga erishildi. Radiologik kuzatuvlar ham bu vositaning xavfsizligini tasdiqladi. Shuningdek, preparatning estetik salbiy ta'siri kuzatilmadi.

Devitec vositasi ham yuqori klinik ko'rsatkichlarga ega bo'lib, og'riqni kamaytirishda va pulpa to'qimasini nobud qilishda ishonchli natija berdi. Radiologik jihatdan xavfsiz bo'lishi uni zamonaviy stomatologik amaliyotda qo'llash uchun qulay vosita sifatida tavsiya etishga asos bo'ladi.

Rezorsin-formalin usuli esa nisbatan kamroq samaradorlik ko'rsatdi. Og'riqni kechroq yo'qotishi, estetik salbiy ta'sirlari (tish rangining o'zgarishi), va ayrim hollarda periapikal o'zgarishlarning mavjudligi uni cheklangan holatlarda qo'llashni talab qiladi.

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy, arseniksiz devital preparatlar – xususan, Depulpin va Devitec – klinik samaradorlik va xavfsizlik bo'yicha ustunlikka ega bo'lib, zamonaviy endodontik amaliyotda afzal tanlov sifatida tavsiya etiladi.



### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Hülsmann, M., & Schäfer, E. (2020). Problems in Endodontics: Etiology, Diagnosis and Treatment. Springer.
2. Ingle, J. I., & Bakland, L. K. (2019). Ingle's Endodontics (7th ed.). BC Decker Inc.
3. Petrov, V. A., & Ivanova, L. M. (2018). Современные подходы к девитальной пульпотомии. *Стоматология*, 97(2), 23–28.
4. Кулаков, А. А., & Жолобов, Ю. В. (2021). Современные методы некротизации пульпы. *Российский стоматологический журнал*, (3), 44–49.
5. Torabinejad, M., & Walton, R. E. (2017). Endodontics: Principles and Practice (5th ed.). Elsevier Health Sciences.
6. Малиновская, Н. П. (2016). Сравнительный анализ препаратов для девитализации пульпы. *ДентАрт*, (1), 12–15.
7. Курбонов, И. С. (2021). Девитализация усуллари ва уларнинг самарадорлиги. *Тиббиётда янги давр*, 4(18), 65–69.
8. Ашурова, З. М. (2020). Девитал пульпотомияда замонавий моддалар қўлланилиши. *Тиббиёт ва амалиёт журнали*, (2), 33–37.
9. European Society of Endodontology. (2006). Quality guidelines for endodontic treatment: Consensus report of the European Society of Endodontology. *International Endodontic Journal*, 39(12), 921–930. <https://doi.org/10.1111/j.1365-2591.2006.01180.x>
10. Narayan, V. G., & Chandrasekhar, V. (2020). Comparative study of devitalizing agents in endodontics. *Journal of Clinical Dentistry*, 11(4), 101–106.

Research Science and  
Innovation House





**Boshqaruv kadrlarini tayyorlashning tashkiliy-iqtisodiy strategiyalari va  
modernizatsiya mexanizmlari**

**Sevara Palvonova**

O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi bolalar, xotin-qizlar, ta’limdagi  
yoshlarni, volontyorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash va ekologik diplomatiya

boshqarmasi bosh mutaxassisi

**E-mail:** [ps.sevara@gmail.com](mailto:ps.sevara@gmail.com)

**ORCID:** 0009-0008-9879-7594

**ANNOTATSIYA**

Maqolada boshqaruv kadrlarini tayyorlashning tashkiliy-iqtisodiy strategiyalari va modernizatsiya mexanizmlari yoritilgan. Boshqaruv kadrlarini tayyorlashning asosiy yo'nalishlari va ularning samaradorlik ko'rsatkichlari tahlili amalga oshirilgan. Davlat boshqaruvida kadrlar tayyorlashning tashkiliy-iqtisodiy strategiyalari va modernizatsiya mexanizmlari zamonaviy davlat organlarining samarali faoliyatini ta'minlanishi bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan.

**Kalitli so'zlar:** davlat boshqaruvi, tashkiliy-iqtisodiy strategiyalar, kadrlar, iqtisodiy mexanizmlar, davlat byudjeti, modernizatsiya, kompetensiyalarni baholash tizimi.

**Kirish.**

Zamonaviy davlat boshqaruvi tizimida kadrlar siyosati va boshqaruv kadrlari tayyorlash masalasi mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi, demokratik islohotlarning samaradorligi va davlat xizmatining sifatini ta'minlash nuqtayi nazaridan muhim ahamiyat kasb etadi. O‘zbekistonda davlat xizmatchilarini tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini shakllantirish nafaqat mamlakatda amalga oshirilayotgan o‘zgarishlar ko‘lami, balki davlat xodimlarining davlat vazifalarini hal etishda shaxsiy omili, ilmiy bilimlari, kasbiy mahorati va malakasining ortib borayotgan roli bilan ham belgilanadi. Davlat apparati kadrlarini barqarorlashtirish, ularning sifat tarkibini mustahkamlash, davlat xizmatchisining o‘z




lavozimini hisobga olgan holda maxsus kasb-hunar ma'lumotiga ega bo'lishi to'g'risidagi qonun hujjatlarida belgilangan talabni bajarish zarurati davlat xizmatchilarining ko'pchiligi uchun kasbiy tayyorgarlik zarurligini belgilab berdi.

Boshqaruv kadrlarini tayyorlashning tashkiliy-iqtisodiy strategiyalari davlat organlarining faoliyat samaradorligini oshirish, zamonaviy boshqaruv usullarini joriy etish va professional kadrlar tizimini shakllantirish maqsadida ishlab chiqiladi. O'zbekiston Prezidenti bo'lajak rahbarlarni tayyorlash va tarbiyalash amaliyotiga juda katta yangiliklar olib kirdi. Ya'ni, u davlat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini tashkil etish va boshqarish jarayonida bugun jahonda yangi hodisa sifatida e'tirof etilayotgan klaster usulini qo'llashni yo'lga qo'yishga sabab bo'luvchi tizimni yaratilishiga asos soldi. Shu asosda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 5-maydagi "Istiqbolli kadrlarni maqsadli tayyorlash hamda ularni davlat boshqaruvi va xizmatiga samarali jalb etish tizimini yana-da takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-78-sonli Farmoni qabul qilindi. Shuning asosida davlat xizmatchilarining sohaviy bilimlarini rivojlantirish hamda "Yordamchi" guruhiga mansub davlat xizmatchilarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish o'z tizimidagi yoki tegishli soha va tarmoq qayta tayyorlash va malaka oshirish markazlarida (institutlarida) tashkil etiladi. Malaka oshirish va qayta tayyorlash xodimlarning kasbiy rivojlanish ehtiyojlariga asoslangan holda tashkil etiladi hamda malaka oshirishning an'anaviy, muqobil va mustaqil shakllari joriy etiladi.

Akademiya davlat buyurtmasiga asosan magistratura ta'lim dasturlariga qabul davlat organlari, xo'jalik boshqaruv organlarining birinchi rahbarlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlarining tavsiyasiga asosan oliy ma'lumotli, 2 yil boshqaruv lavozimlarida ish tajribasiga ega bo'lgan, qoida tariqasida Milliy kadrlar zaxirasiga kiritilgan davlat xizmatchilari hamda fuqarolik jamiyati institutlari va tadbirkorlik subyektlari xodimlari orasidan tanlov o'tkazish orqali amalga oshiriladi<sup>1</sup>. Ilmiy salohiyatni oshirish va xorijiy hamkorlikni yanada kuchaytirish amalga oshiriladi.

Davlat boshqaruvida kadrlar tayyorlash tizimining asosiy vazifalari orasida yuqori malakali mutaxassislarni shakllantirishdan tortib, ularning doimiy professional rivojlanishini ta'minlashgacha bo'lgan keng spektrdagi masalalar kiradi. Bu jarayon

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 5-maydagi "Istiqbolli kadrlarni maqsadli tayyorlash hamda ularni davlat boshqaruvi va xizmatiga samarali jalb etish tizimini yana-da takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-78-sonli Farmoni <https://lex.uz/uz/docs/-7520315>





nafaqat individual kadrlarning bilim va ko'nikmalarini rivojlantirish, balki butun davlat apparatining samaradorligini oshirishga qaratilgan tizimli yondashuvni talab qiladi. Kadrlar tayyorlashning zamonaviy kontseptsiyasi kompetensiyalarga asoslangan yondashuv asosida quriladi va xalqaro tajribalar bilan uyg'unlashtiriladi.<sup>2</sup>

Davlat boshqaruvida kadrlar tayyorlash tizimining nazariy asoslari bir qator konseptual yondashuvlarni o'z ichiga oladi. Birinchidan, strategik kadrlar menejmenti nazariyasi davlat organlari faoliyatining uzoq muddatli maqsadlariga mos ravishda kadrlar siyosatini shakllantirishga yo'naltirilgan. Ikkinchidan, kompetensiyalarga asoslangan ta'lim tizimi zamonaviy davlat xizmati talablariga javob beradigan professional ko'nikmalarni rivojlantirishni nazarda tutadi. Uchinchidan, doimiy ta'lim va professional rivojlanish kontseptsiyasi kadrlarning hayotiy davrida uzluksiz o'z malakasini oshirib borishini ta'minlaydi.<sup>3</sup>

Tashkiliy jihatdan kadrlar tayyorlash tizimi bir necha bosqichli tuzilmaga ega. Dastlabki bosqichda oliy ta'lim muassasalarida davlat boshqaruvi sohasida bazaviy bilimlar beriladi. Keyingi bosqichda maxsus o'quv markazlari va institutlarda amaliy ko'nikmalar rivojlantiriladi. Nihoyat, ishlab chiqarish sharoitida davomiy malaka oshirish va qayta tayyorlash dasturlari amalga oshiriladi. Bu tizimning muvaffaqiyati turli bosqichlar orasidagi uzviy bog'liqlik va uzluksizlikni ta'minlashga bog'liq.<sup>4</sup>

Boshqaruv kadrlarini tayyorlashda tashkiliy tuzilmalarning roli nihoyatda muhimdir. Davlat organlari tarkibida kadrlar bo'limlari, o'quv-uslubiy markazlar va malaka oshirish institutlari faoliyat yuritadi. Ushbu tashkilotlar o'rtasidagi samarali koordinatsiya va hamkorlik kadrlar tayyorlash jarayonining sifatini sezilarli darajada oshiradi. Shu bilan birga, xorij davlatlar tajribasini o'rganish va xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish zarurati ham kadrlar tayyorlash tizimining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.<sup>5</sup>

Kadrlar tayyorlashning iqtisodiy mexanizmlari davlat byudjeti mablag'lari, xalqaro grantlar, xususiy sektor investitsiyalari va boshqa moliyaviy manbalar asosida tashkil etiladi.<sup>6</sup> Moliyalashtirish tizimining samaradorligi kadrlar tayyorlash dasturlarining sifati va qamrov doirasiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Zamonaviy

<sup>2</sup> Граждан В.Д. Государственная служба как профессиональная деятельность. – М.: РАГС, 2019. – 344 с.

<sup>3</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Davlat xizmati tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5022-son farmoni. – Toshkent, 2017.

<sup>4</sup> Турчинов А.И. Кадровая политика в сфере государственного управления: проблемы и решения. – М.: Изд-во РАГС, 2021. – 392 с.

<sup>5</sup> Wilson W. The Study of Administration // Political Science Quarterly. – 2019. – Vol. 134, No. 4. – P. 581-616.

<sup>6</sup> OECD. Government at a Glance 2023: Public Governance Indicators. – Paris: OECD Publishing, 2023. – 284 p.



yondashuvlar moliyaviy resurslardan optimal foydalanish, xarajatlarning samaradorligini baholash va natija ko'rsatkichlariga asoslangan byudjet tuzish tamoyillarini nazarda tutadi.

Davlat kadrlarini tayyorlashga sarflanadigan xarajatlar uzoq muddatli investitsiya sifatida qaralishi kerak. Bu investitsiyalarning ijtimoiy-iqtisodiy ta'siri nafaqat davlat organlarining faoliyat samaradorligini oshirishda, balki butun mamlakatning raqobatbardoshligini kuchaytirishda namoyon bo'ladi. Shu munosabat bilan kadrlar tayyorlash sohasida xarajatlarning rentabelligini aniqlash va baholash usullari ishlab chiqilmoqda. Bu usullar kadrlar tayyorlash dasturlarining samaradorligini miqdoriy ko'rsatkichlar yordamida baholash imkonini beradi.

Moliyalashtirish modellarining diversifikatsiyasi kadrlar tayyorlash tizimining barqarorligini ta'minlaydi. Davlat byudjeti vositalaridan tashqari, xalqaro tashkilotlar granti, xususiy kompaniyalar hamkorligi va boshqa moliyaviy manbalardan foydalanish mumkin. Bu yondashuv nafaqat moliyaviy yukni kamaytiradi, balki turli xil tajribalar va innovatsion yechimlarni joriy etish imkonini ham yaratadi.


Kadrlar tayyorlash tizimini modernizatsiya qilish zamonaviy davlat boshqaruvi talablariga javob berish uchun zarur.<sup>7</sup> Raqamli texnologiyalarning rivojlanishi, globallashtirish jarayonlari va xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish ehtiyojlari kadrlar tayyorlash dasturlarini tubdan qayta ko'rib chiqishni talab qiladi. Modernizatsiya strategiyalari nafaqat texnologik yangiliklarni joriy etish, balki ta'lim metodologiyasini ham zamonaviylashtirish masalalarini qamrab oladi.

Raqamli ta'lim platformalari va onlayn kurslar kadrlar tayyorlashda yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Ushbu texnologiyalar masofaviy ta'lim, individual ta'lim traektoriyalari va interaktiv o'quv jarayonlarini tashkil etish imkonini beradi. Shu bilan birga, an'anaviy sinf-dars tizimi bilan raqamli texnologiyalarni muvozanatli birlashtirishga e'tibor qaratish muhimdir. Gibridd ta'lim modeli bu ikki yondashuvning afzalliklarini birlashtirish imkonini yaratadi.

Xalqaro hamkorlik va tajriba almashish dasturlari kadrlar tayyorlash sifatini oshirishning muhim omili hisoblanadi.<sup>8</sup> Rivojlangan davlatlar tajribasini o'rganish, qiyosiy tahlillar o'tkazish va eng yaxshi amaliyotlarni qo'llash orqali milliy kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish mumkin. Bu jarayonda mahalliy sharoitlar va

<sup>7</sup> Абдуллаев А.М. Давлат бошқарувида кадрлар тайёрлаш муаммолари // Жамият ва бошқарув. – 2022. – №3. – Б. 45-52.

<sup>8</sup> Peters B.G., Pierre J. Handbook of Public Administration. – London: SAGE Publications, 2021. – 656 p.





milliy xususiyatlarni hisobga olish zarur, chunki boshqa davlatlar tajribasini to'g'ridan-to'g'ri nusxalash har doim ijobiy natija bermaydi.

Zamonaviy kadrlar tayyorlash tizimida kompetensiyalarga asoslangan yondashuv keng qo'llanilmoqda. Bu yondashuv bo'yicha kadrlar tayyorlash jarayoni aniq professional kompetensiyalarni rivojlantirish maqsadida tashkil etiladi.<sup>9</sup> Kompetensiyalar nazariyasi bo'yicha professional faoliyatda muvaffaqiyat qozonish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma, qobiliyat va shaxsiy fazilatlarining majmui aniqlanadi. Davlat boshqaruvi sohasida ish faoliyati xususiyatlarini hisobga olgan holda kompetensiyalar modeli ishlab chiqilishi muhim ahamiyatga ega.

### Metodologiya.

Kompetensiyalarga asoslangan kadrlar tayyorlash dasturlari amaliyotga yo'naltirilgan ta'lim metodlarini qo'llashni nazarda tutadi. Bunda nazariy bilimlar amaliy mashg'ulotlar, ish joyida o'qitish (on-the-job training), loyiha ishlari va stajchilik dasturlari orqali mustahkamlanadi. Simulyatsiya usullari va vaziyatli mashqlar ham professional ko'nikmalarni rivojlantirishda samarali vosita hisoblanadi. Ushbu metodlar real ish sharoitlariga yaqin muhitda kadrlarni tayyorlash imkonini beradi.

Kompetensiyalarni baholash tizimi kadrlar tayyorlash jarayonining muhim tarkibiy qismidir. Objektiv baholash mezonlari va standartlari ishlab chiqish, baholash jarayonini tashkil etish va natijalarni tahlil qilish orqali ta'lim sifatini nazorat qilish mumkin. Kompetensiyalar darajasini baholash uchun turli metodlar qo'llaniladi: test sinovlar, amaliy topshiriqlar, portfolio baholash, hamkasblar tomonidan baholash va boshqalar.

### 1-jadval.

#### Boshqaruv kadrlarini tayyorlashning asosiy yo'nalishlari va ularning samaradorlik ko'rsatkichlari

Yo'nalish	Maqsad	Usullar	Samaradorlik ko'rsatkichi	Moliyaviy xarajat (%)
Bazaviy ta'lim	Professional asoslarni shakllantirish	Universitetlarda ta'lim	Bitiruvchilarning 85%i ishga joylashishi	40

<sup>9</sup> O'zbekiston Milliy universiteti. Davlat va huquq fakulteti. Davlat boshqaruvi kafedrasida. Ilmiy ishlar to'plami. – Toshkent, 2023. – 234 b.





Malaka oshirish	Mavjud bilimlarni yangilash	Qisqa muddatli kurslar	Ishchi unumdorligining 15% oshishi	25
Qayta tayyorlash	Yangi sohaga o'tish	Intensiv dasturlar	90% muvaffaqiyatli o'tish	20
Yuqori rahbarlar tayyorlash	Strategik boshqaruv ko'nikmasi	MBA, magistratura	Boshqaruv samaradorligining 25% oshishi	15

Jadval ma'lumotlariga ko'ra, boshqaruv kadrlarini tayyorlashning turli yo'nalishlari o'ziga xos samaradorlik ko'rsatkichlariga ega. Bazaviy ta'lim eng katta moliyaviy xarajatlarni talab qilsa-da, uzoq muddatli ta'sir ko'rsatadi. Malaka oshirish va qayta tayyorlash dasturlari nisbatan kam xarajat bilan yuqori samaradorlikni ta'minlaydi.

Kadrlar tayyorlash sohasida innovatsion yondashuvlar joriy etish zamonaviy ta'lim sifatini oshirishning muhim omilidir. Virtual reallik (VR) va kengaytirilgan reallik (AR) texnologiyalari o'quv jarayonida foydalanish yangi imkoniyatlar yaratmoqda.<sup>10</sup> Ushbu texnologiyalar yordamida real ish vaziyatlarini simulyatsiya qilish, xavfli sharoitlarda amaliy mashg'ulotlar o'tkazish va interaktiv ta'lim muhitini yaratish mumkin. Sun'iy intellekt asosidagi ta'lim tizimlari individual o'quv traektoriyalarini ishlab chiqish va shaxsiy ehtiyojlarga moslashtirilgan dasturlar tayyorlash imkonini beradi.

Texnologik integratsiya jarayonida katta hajmdagi ma'lumotlar (Big Data) va analitik usullardan foydalanish kadrlar tayyorlash samaradorligini oshiradi. O'quvchilarning o'zlashtirish jarayonini kuzatish, qiyinchiliklar va muammolarni aniqlash, ta'lim natijalarini bashorat qilish uchun ma'lumotlar tahlili qo'llaniladi. Ushbu yondashuv ta'lim jarayonini doimiy takomillashtirish va individual yondashuvni ta'minlash imkonini yaratadi.

Mobil ta'lim platformalari va mikroo'quv (microlearning) usullari zamonaviy kadrlar tayyorlashning muhim qismi hisoblanadi. Qisqa va aniq ta'lim modullari, interaktiv ilovalar va onlayn resurslar kadrlarning doimiy o'z-o'zini rivojlantirish

<sup>10</sup> Каримов Ф.Х. Замонавий давлат хизматида кадрлар тайёрлашнинг инновацион усуллари // Давлат ва ҳуқук. – 2023. – №2. – Б. 28-35.





jarayonini qo'llab-quvvatlaydi. Bu yondashuv ayniqsa ish vaqtida ta'lim olish va professional rivojlanishni davom ettirish uchun qulay sharoitlar yaratadi.

Kadrlar tayyorlash sifatini ta'minlash uchun har tomonlama sifat menejmenti tizimi zarur. Bu tizim ta'lim dasturlarini ishlab chiqishdan tortib, natijalarni baholash va doimiy takomillashtirishgacha bo'lgan barcha jarayonlarni qamrab oladi. Xalqaro sifat standartlari (ISO seriyasi) va ta'lim sohasiga xos akkreditatsiya tizimlari kadrlar tayyorlash sifatini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Sifat ko'rsatkichlarini doimiy monitoring qilish va tahlil qilish orqali ta'lim jarayonini yaxshilash yo'llari aniqlanadi.

Baholash tizimlarining zamonaviylashtirilishi kadrlar tayyorlash samaradorligini oshirishning muhim shartidir. Formativ (jarayon davomida) va summativ (yakuniy) baholash usullarini muvozanatli qo'llash, 360 daraja baholash metodikasi va kompetensiyalarga asoslangan baholash tizimlari professional rivojlanish jarayonini obyektiv baholash imkonini beradi. Baholash natijalarini keyingi ta'lim dasturlarini rejalashtirish va individual rivojlanish yo'llarini belgilash uchun foydalanish muhimdir.

Tashqi ekspertiza va mustaqil baholash organlari faoliyati kadrlar tayyorlash sifatini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Xalqaro ekspertlar jalbi, qiyosiy tahlillar o'tkazish va benchmarking usullari yordamida milliy kadrlar tayyorlash tizimining xalqaro standartlarga muvofiqligini ta'minlash mumkin. Bu jarayonda shaffoflik va ochiqlik tamoyillariga rioya qilish zarur.

Kadrlar tayyorlash tizimining uzoq muddatli barqarorligi va rivojlanish istiqbollari ta'minlash uchun strategik rejalashtirish muhim ahamiyatga ega. Demografik o'zgarishlar, texnologik rivojlanish, iqtisodiy transformatsiya va ijtimoiy ehtiyojlar o'zgarishini hisobga olgan holda kadrlar tayyorlash strategiyasini doimiy yangilab borish zarur. Istiqbolni rejalashtirish jarayonida barcha manfaatdor tomonlarning ishtiroki va ularning ehtiyojlarini hisobga olish muhimdir.

Kadrlar tayyorlash sohasida ilmiy-tadqiqot faoliyatini rivojlantirish ham muhim yo'nalish hisoblanadi. Pedagogik innovatsiyalar, ta'lim metodikasi, psixologik tadqiqotlar va boshqa sohalardagi ilmiy ishlar kadrlar tayyorlash sifatini yaxshilashga hissa qo'shadi. Universitetlar, tadqiqot institutlari va amaliy muassasalar o'rtasidagi hamkorlik bu sohadagi ilmiy-amaliy faoliyatni rivojlantirishga yordam beradi.

#### **Xulosa.**

Umumiy qilib aytganda, davlat boshqaruvida kadrlar tayyorlashning tashkiliy-iqtisodiy strategiyalari va modernizatsiya mexanizmlari zamonaviy davlat organlarining samarali faoliyatini ta'minlashning muhim shartidir. Bu sohadagi muvaffaqiyat kompleks yondashuv, innovatsion texnologiyalar qo'llash, xalqaro



tajribadan foydalanish va doimiy takomillashtirish asosida erishiladi. Kadrlar tayyorlash tizimining barqarorligi va rivojlanishi butun davlat boshqaruvi samaradorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi va mamlakatning uzoq muddatli rivojlanish maqsadlariga erishishga yordam beradi.

### Adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 5-maydagi "Istiqbolli kadrlarni maqsadli tayyorlash hamda ularni davlat boshqaruvi va xizmatiga samarali jalb etish tizimini yana-da takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-78-sonli Farmoni <https://lex.uz/uz/docs/-7520315>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Davlat xizmati tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5022-son farmoni. – Toshkent, 2017.
3. O'zbekiston Milliy universiteti. Davlat va huquq fakulteti. Davlat boshqaruvi kafedrası. Ilmiy ishlar to'plami. – Toshkent, 2023. – 234 b.
4. Каримов Ф.Х. Замонавий давлат хизматида кадрлар тайёрлашнинг инновацион усуллари // Давлат ва ҳуқуқ. – 2023. – №2. – Б. 28-35.
5. Абдуллаев А.М. Давлат бошқарувида кадрлар тайёрлаш муаммолари // Жамият ва бошқарув. – 2022. – №3. – Б. 45-52.
6. Peters B.G., Pierre J. Handbook of Public Administration. – London: SAGE Publications, 2021. – 656 p.

Research Science and  
Innovation House



## Sinonim leksemalarda poetiklikning namoyon bo'lishi

**Diyora Begjigitova Abdimannob qizi**

Guliston Davlat universiteti magistranti

[diyoraazizova311@gmail.com](mailto:diyoraazizova311@gmail.com)

### **Annotatsiya:**

Ushbu maqola tilshunoslikda sinonimiya hodisasining o'rganilishi va uning tarixiy rivojlanishi, shuningdek, adabiyot va poetik nutqda sinonimlarning o'rni haqida to'liq tahlil beradi. Maqolada sinonim so'zlarning yunon tilidan kelib chiqishi va tilshunoslikdagi ahamiyati haqida fikrlar bayon etilgan. Sinonimlarning turli turlari, jumladan, absolyut, semantik, kontekstual va stilistik sinonimlar keltirilgan bo'lib, har bir turkumning o'ziga xos xususiyatlari va foydalanish imkoniyatlari ta'kidlangan. Bundan tashqari, sinonimlarning tilshunoslikdagi ilmiy tadqiqotlar va ularning badiiy adabiyotdagi roli o'rganilgan. She'riyatda sinonimlarning emotsional-ekspressiv ahamiyati va poetik so'zlarning nutqdagi tasviriy, badiiy va ta'sirchanlik funksiyalari alohida ko'rib chiqiladi. Maqola, shuningdek, o'zbek tilshunosligida sinonimlar va ularning lug'atlarda berilishi haqida ham so'z yuritib, XX asr va XXI asr boshlaridagi ilmiy izlanishlarga doir yangiliklarni o'z ichiga ola, Maqola tilshunoslikda sinonimiyaning murakkab strukturasi, uning semantik va uslubiy jihatlarini chuqur tahlil qilishga harakat qilgan bo'lib, til va adabiyot o'rtasidagi bog'liqlikni yoritishda katta ahamiyatga ega.

**Kalit so'zlar.** Ramz, Simvol, Mifologik qush obrazlari, Mumtoz adabiyot, Poetik leksemalar, Ramziy ma'no, Allegoriya.

### **Annotation:**

This article provides a comprehensive analysis of the phenomenon of synonymy in linguistics, its historical development, and its role in literature and poetic speech. The article discusses the origin of synonymic words in Ancient Greek and their significance in linguistics. It outlines various types of synonyms, including absolute, semantic, contextual, and stylistic synonyms, highlighting the unique characteristics and usage possibilities of each category.

Additionally, the article explores scientific research on synonyms in linguistics and their role in literary works. It examines the emotional-expressive importance of





synonyms in poetry and the artistic, visual, and impactful functions of poetic words in speech. The article also delves into the treatment of synonyms in Uzbek linguistics and their representation in dictionaries, incorporating the latest scientific findings from the late 20th and early 21st centuries.

The article aims to provide an in-depth analysis of the complex structure of synonymy, focusing on its semantic and stylistic aspects, while also emphasizing the connection between language and literature. It is of significant importance in illuminating the interrelationship between language, meaning, and artistic expression.

**Keywords.** Symbol, Mythological bird imagery, Classical literature, Poetic lexemes, Symbolic meaning, Allegory

### The role of symbolic lexicon in poetry

Diyora Begjigitova Abdimannob qizi

Master's student of Gulistan State University


[diyoraazizova311@gmail.com](mailto:diyoraazizova311@gmail.com)

Til taraqqiyoti insoniyat tamadduni va fikrlash darajasining shakllanishini o‘zida aks ettiradi<sup>1</sup>. So‘zlararo leksik-semantik munosabatlar hamisha tilshunoslikning eng dolzarb masalalaridan hisoblangan. Jumladan, sinonimiya hodisasi o‘zining turli-tumanligi, tarkibiga boshqa hodisalarni qamrab olishi bilan ahamiyatli.

Sinonim so‘zi yunon tilidan olingan bo‘lib, [σύν](#) “birga” Q ὄνομα “nom” birga nomlash degan ma‘noni bildiradi. Bir turkumga tegishli, o‘zaro ma‘nolari bir-biriga yaqin bo‘lgan turli so‘zlar sinonimlar hisoblanadi. Sinonimiya hodisasi tilshunoslikning deyarli barcha sohalarida uchraydi va asosiy obyektlardan sanaladi, chunki til leksikasi katta qismining katta hajmini sinonimlar egallaydi.

Leksik sinonimlarning dunyo tilshunosligida o‘rganilishi qadimgi Yunoniston antik falsafasidan boshlanadi. Qadimda yunon fanlari ichida notiqlik eng muhim fanlardan hisoblangan va yunon faylasuflari har bir notiq stilistika va sinonimiyani chuqur o‘rganishi lozimligini qayd etishgan. Bu haqida Platon o‘zining “Kratil” asarida Suqrot bilan notiqlik xususidagi muammolarga javob izlaydi va stilistika, sinonimiya

<sup>1</sup> Брикотнина Л.В. Специфика семантики абстрактных имен качества и ее экспликация в синтаксисе: Дисс... канд. филол. наук. – Барнаул, 2005. – С. 45.





notiqlik uchun muhim sohalar ekanligini ta'kidlaydi. Sinonimiyaga oid ishlar mil. avv. VI-V asrlarda paydo bo'lgan. Xususan, miloddan avvalgi V asrda sinonimlar nazariyasini ishlab chiqqan Prodik omonim va sinonimlarni yaxshi bilish notiq va shoirlar uchun muhim ekanligini qayd etgan edi<sup>2</sup>. Boshqa bir faylasuf Demokrit esa narsa va uning nomi o'rtasida bog'liqlik mavjud emas, degan fikrga keladi va buning isboti sifatida tildagi omonim va sinonim so'zlarni misol qiladi<sup>3</sup>.

Shaklan har xil, mazmunan bir xil so'zlar qatorining muayyan o'xshashlik asosida o'zaro bog'lanishi, bu birliklar orasidagi farqlar, ularning tabiati va yuzaga chiqish sabablari maxsus ilmiy ishlarda, o'nlab qo'llanma va darsliklarda o'z yechimini topgan<sup>4</sup>. Sinonim leksema semalaridagi atash va vazifa semasi aynan bir xil bo'lib, ifoda semasi farqlanadi. Ma'nodoshlik paradigmasi doimo ochiq. Jamiyat, davr talabi asosida keraksizi iste'moldan chiqib, qator yangilari bilan boyib boraveradi. Nutqda ma'nodoshlik qatorlari nutqning atash birliklari, ibora, mustaqil leksema sememalarining turi, yasama so'z, so'z birikmasi, nutqiy ko'chma so'z bilan to'lib, kengayib boradi. Bular kontekstual sinonim sifatida nutqning go'zalligi va boyligini ta'minlovchi vosita sanaladi<sup>5</sup>.

Adabiyotlarda sinonimlar, asosan, to'rt turga bo'linadi<sup>6</sup>:

1. Ma'no ottenkasiga putur yetkazmay, bir-birining o'rnida bimalol ishlatila oluvchi so'zlar absolyut sinonim deyiladi: tilshunoslik – lingvistika.
2. Ma'no jihatdan farqlanuvchi sinonimlar **semantik tipga** kiradi: botir, jasur, qo'rqmas, dadil.
3. Nutq situatsiyasi yoki kontekstda ma'nolari jihatdan bir-birining o'rnida ishlatila oluvchi sinonimlar kontekstual sinonim sanaladi: shoir, yozuvchi, adib.
4. Ma'no ottenkalarida emotsional-ekspressiv hissiyotni ifodalovchi sinonimlar – stilistik sinonim: yuz, bashara, aft, chehra, nusxa, turq.

Bularning barchasi tilshunoslikda alohida ahamiyat kasb etgan holda, poetiklim masalasida ham muqim o'rin egallaydi. Zero, sinonimlarning asosiy qismi poetiklikni ifodalash uchun xizmat qiladi. Ulardagi uslubiy baho bilan birgalikda buyoqdorlik –

<sup>2</sup> Усмонов С. Умумий тилшунослик. – Тошкент: Ўқитувчи, 1972. – Б. 22.

<sup>3</sup> Усмонов С. Умумий тилшунослик. – Тошкент: Ўқитувчи, 1972. – Б. 18.

<sup>4</sup> Неъматов Х., Расулов Р. Ўзбек тили систем лексикологияси асослари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1995. – Б. 105.

<sup>5</sup> Неъматов Х., Расулов Р. Ўзбек тили систем лексикологияси асослари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1995. – Б. 113.

<sup>6</sup> Содиқов А., Абдуазизов А., Ирискулов М. Тилшуносликка кириш. – Тошкент: Ўқитувчи, 1981. – 226 б. – Б. 104



kitobiylik namoyon bo'ladiki, ularning poetikligini ta'minlaydi. Yuqoridagi sinonimik qatorda ham chehra so'zida kitobiylik yuqori. Shuning uchun ham sinonimik qatordagi poetik leksikani tashkil qilgan.

Sinonimlar, yuqorida ta'kidlanganidek, turli jihatdan tahlilga tortilgan. Xususan, sinonimiya hodisasi yuzasidan amalga oshirilayotgan tadqiqotlar xususida yangi avlod sinonimshunoslaridan G'.Rahmonov ma'nodosh birliklarning ilk an'anaviy talqinlarida ularga yaxlit, bo'linmas birlik sifatida qaralgan<sup>7</sup>ligini ta'kidlaydi. Keyingi amalga oshirilgan sinonimiyaga doir tadqiqotlarda leksik ma'no qirralariga bo'linishi va semantik tarkibiy qismlarga ajralishi<sup>8</sup>ga tayanildi. Demak, sinonimiya hodisasining milliy talqinidagi ilk ta'riflarga nutq birligi bo'lgan so'z, keyingi ta'riflarga esa lisoniy birlik hisoblangan leksema orqali yondashilgan. Hozir sinonimiya sememalar munosabatiga asoslangan semantik hodisa ekanligi aksiomaga aylanib ulgurdi. "Semasiologik asosda belgilanuvchi bu hodisa, ko'pincha, stilistik – nutqiy maqsadlarga, qisman semantik – ideografik maqsadga xizmat qiladi. Zero, sinonimlar orasidagi farqlar uslubiy, shuningdek, ma'no qirrasida, xususan, ma'noni gavdalanitiradigan obrazlarda mavjud bo'ladi"<sup>9</sup>.

XX asrning 90-yillaridan keyin sinonimiya hodisasi B.Yo'ldoshev, H.Shamsitdinov tadqiqotlarida semantik-funksional, O.Bazarov<sup>10</sup>, Sh.Orifjonovalar tomonidan graduonimik aspektda o'rganildi. XXI asr boshlarida amalga oshirilgan tadqiqotlarda ham sinonimiya hodisasi mohiyatiga chuqurlashuv, talqinlar qamrovining birmuncha kengayganligini ko'rish mumkin. Xususan, tilshunoslar M.Mirtojiyev, S.Karimov, B.Mengliyev<sup>11</sup>, Z.Yunusova<sup>12</sup> va ular izdoshlarining sinonimiya hodisasi yuzasidan bayon etgan fikrlari o'zbek tilshunosligida bajarilayotgan tadqiqotlarning hozirgi holatini ifodalaydi.

O'zbek tilshunosligida sinonimlarning lug'atlarda aks etishi masalalariga doir dastlabki tadqiqotlar XI asrda Mahmud Qoshg'ariyning "Devoni lug'otit turk" asarida

<sup>7</sup> Раҳмонов Ғ.Р. Ўзбек тилида луғавий синонимия ва градуонимиянинг ўзаро муносабати: Филол.фан.б. фал.док. ...дисс. – Фарғона, 2019. – 156 б.

<sup>8</sup> Раҳматуллаев Ш. Семик таҳлил ва лексик синонимияни таърифлаш масаласи // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент: 1979, № 5. 55 б.

<sup>9</sup> Раҳмонов Ғ.Р. Ўзбек тилида луғавий синонимия ва градуонимиянинг ўзаро муносабати: Филол.фан.б. фал.док. ...дисс. – Фарғона, 2019. – Б. 16.

<sup>10</sup> Базаров О. Ўзбек тилида даражаланиш: Филол.фан. д-ри...дисс. –Тошкент, 1997. – 270 б.

<sup>11</sup> Менглиев Б. Ҳозирги ўзбек тили (кириш, фонетик сатх, лексик-семантик сатх). – Тошкент: Тафаккур бўстони. – 2018. – 157 б.

<sup>12</sup> Юнусова З. Қ. Ўзбек тилида луғавий микросистеманинг таркиби ва ривожланиши: Филол.фан. номз...дисс. –Тошкент, 2004. – 131 б.



ko'zga tashlanadi. Masalan, o'lo'k so'ziga berilgan izohda hissa; qismat; nasiba kabi kontekstda teng qo'llanuvchi sinonimlar; o'pum so'ziga berilgan izohda yutum, qultum kabi teng qo'llanuvchi sinonimlar aniq ko'rsatib berilgan<sup>13</sup>.

Leksik sinonimlar va unga yondosh hodisalarning lug'atlarda berilishi tilshunos A.Hojiyevning amaliy tadqiqotlaridan boshlanadi. Uning 1974-yilda nashr etilgan "O'zbek tili sinonimlarining izohli lug'ati" bu boradagi katta qadam, o'zbek tili sinonimlarining chinakam tahlili bo'ldi. Lug'atda sinonimlarga yondosh hodisa variantdosh so'zlar ham e'tibordan chetda qolmagan. Bundan tashqari, lug'at o'zbek tilidagi leksik sinonimlarni qamrab olishiga qaramasdan, lug'at tarkibida grammatik omillar asosida yuzaga kelgan sinonim leksemalar ham sinonimik qatorda beriladi. Lug'atda leksik sinonimlar qo'llanish davri, doirasi va darajasi, ma'noviy gradatsiyasi, emotsional bo'yoqdorligi, uslubiy xoslanishiga ko'ra izohlangan. Lug'atda leksik sinonimlar quyidagi tartib asosida tuzilgan:

- 1) sinonimik qator;
- 2) qatordagi so'zlar uchun umumiy ma'no izohi;
- 3) sinonimik qatordagi so'zga xos xususiyat tavsifi;
- 4) sinonimga berilgan izohni dalillovchi illyustrativ misollar<sup>14</sup>.

XX asr 90-yillari va undan keyingi davrda leksik sinonimlarning leksikografik talqini yuzasidan o'zbek tilshunosligida ilmiy izlanishlar, tadqiqotlar olib borildi. Tilshunos olimlar O.Bazarov, Sh.Orifjonova, Sh.Bobojonov, G'.Rahmonov, A.Eshmuminov, B.Daniyorov leksik sinonimlarning lug'atlarda berilishi bilan bog'liq izlanishlari ham leksikologiya, ham leksikografiya sohasida sezilarli yangiliklarni olib kirdi. XX asrning 90-yillaridan keyin so'zlardagi ierarxik munosabat tufayli yuzaga kelgan giponimiya, partonimiya va graduonimiya kabi hodisalar fanda yangi burilishni hosil qildi. Leksik sinonimlarning ma'noviy tarkibida yaqqol sezilib turuvchi darajalanish (graduonimiya) hodisasini alohida sinonimlar bilan bog'liq holda o'rganish tilshunoslikda ko'plab tadqiqotlarning yaratilishiga asos bo'ldi<sup>15</sup>.

Badiiy asar tilining badiiylik, obrazlilik va ta'sirchanlik ko'lami janrining xususiyatlariga ko'ra bir xil emas. Bu vositalar nisbatan poeziya tilida bo'rtiribroq tasvirlanadi. Shu jihatdan poeziya tili o'ziga xos til hisoblanib, uning xususiyatlarini

<sup>13</sup> Махмуд Қошғарий. Девони луғати-т-турк. I жилд. Тошкент: Ўзбекистон ССР фанлар академияси, 1965. – Б. 498.

<sup>14</sup> Ҳожиёв А. Ўзбек тили синонимларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1974. – Б. 308.

<sup>15</sup> Саидова Ф. Луғатларда синоним лексемалар талқини. Ф.ф.ф.д. ...дисс. Автореферати. – Гулистон, 2023. – Б. 29





o'rganish masalasiga tobora qiziqish bildirishi to'g'risida B.Umurqulov o'zining "Poetik nutq leksikasi" asarida shunday fikr bildirib o'tadi<sup>16</sup>. Darhaqiqat, she'riyat, ya'ni she'riy nutq til imkoniyatining yuksak namunasini ko'rsatuvchi vositalardan biri hisoblanadi. Chunki undagi ta'sirchanlik (emotsional-ekspressivlik) shunday shakllantirilganki, kishini jumbushga keltiradi.

She'riyatdagi takrorlar, ohangdoshlik, inversiyadan mohirona foydalanish uning ta'sirchanligini shakllantiruvchi vositalar sirasiga kiradi. Shu bilan birga, bunday nutqni shakllanishida leksik birliklarning, so'zni o'rinli qo'llashning ahamiyati ham kattadir. Negaki, bunday nutqning shakllanishida leksik birliklarning alohida turi sifatida qarash mumkin bo'lgan, o'zida poetiklikni ifodalagan so'zlarning o'rni alohida ahamiyatga ega. Bunday leksemalar nutqning obrazlilikini, badiiyligini, shu bilan birga, emotsional-ekspressivligini ta'minlashga xizmat qiladi. Shunday ekan, she'riyatda ta'sirchanlik jozibadorlikni uyushtirishda, ifoda usulining o'ziga xosligini ta'minlashda, badiiy tashbihlar bilan bir qatorda so'zni, ayniqsa, poetik so'zning muhim o'rni mavjud. Poetik leksika, avvalambor, o'z-o'zidan vujudga kelmaydi. Uni poetik nutq uchun tabaqalanishiga tilning o'zi imkoniyat yaratib beradi. Nutq vaziyatida o'rni bilan qo'llanilgan, nutqdan tashqarida majoziy ma'noga ega ekanligi ko'rinib turuvchi, ko'tarinkilikka ega bo'lgan so'zlarda shunday xususiyat mavjud. Shu ma'noda sinonimlar ham o'rni bilan poetik so'z hosil qiluvchi manbadir. Masalan: shamol, yel, sabo, shabboda sinonimlaridan sabo va shabboda so'zlari emotsional bo'yoqdorligi bilan ajraladi. Poetik leksika sifatida bu so'zlardan shoir ijodida ko'p uchratishimiz mumkin.

– Yo'q, fikrim band etgan oqqushlar emas,  
Sabo yo parivash boqishlar emas.  
Na suv ko'zgusida ko'ringan hilol,  
Na chehrasi ol!

(Erkin Vohidov "Majnuntol")

Poetik so'zlarga xos xususiyatlardan biri, asosan, poetik sinonimlikdir. Berilgan parchada qo'llanilgan chehra so'zi ham yuz so'zi tashkil qilgan sinonimik qatordagi poetiklikni ifodalovchi so'z hisoblanadi. Xususan, parivash va boqmoq leksemalari

<sup>16</sup> Умурқулов Б. Поэтик нутқ лексикаси. – Тошкент: Фан, 1990. – Б. 11.





ham xuddi shunday sinonimik qatorni tashkil qiladi. Bunday soʻzlar sheʼriy asar jozibasini taʼminlaydi.

Shoir Erkin Vohidov vatan, oʻlka, el, mamlakat, diyor, yurt sinonimik qatoridan aynan yurt soʻzini tanlab oladi:

Bukun olis yoʻldan qaytganim chogʻda,  
Ilk satrida sizni qildim muqarrar.  
Ey siz, jondoshlarim, yurtdan yiroqda,  
Yurtning xizmatiga bogʻlagan kamar.

(E. Vohidov, “Vatan sogʻinchi”)

Bu esa lirik satrdagi boʻyoqdorlikning oshishiga xizmat qiladi. Oʻlka, el, mamlakat soʻzlari esa umumnutqiy sinonimiyadir<sup>17</sup>. “Sinonimlarning katta izohli lugʻati”da sinonimik qatordagi diyor, el leksemalarini poetik uslubga xos, deya keltiradi<sup>18</sup>. Ammo ular poetik nutqda matnning talabiga koʻra qoʻllanadi. B.Umurqulov ham poetik leksika masalasiga toʻxtalib shunday fikr keltiradi: “diyor soʻzi shaklan ham mazmunan ham kitobiy vatan, folklor asarlariga xos oʻlka variantlaridan farqlanadi. Bu soʻzlarning qaysi birini qoʻllashga nutq yoʻnalishi, kontekst asosiy rol oʻynaydi. Erkin Vohidovdan farqli oʻlaroq H.Olimjonning “Oʻzbekiston” sheʼrida “Vatan” maʼnosida vatan, oʻlka, diyor soʻzlarini qoʻllagan.

Chappar urib gullagan boʻgʻin,  
Oʻpar edim vatan tuprogʻin.  
Bu shundayin ajib diyordir,  
Buning qiziq hikmati bordir.  
Shunday oʻlka doim bor boʻlsin,  
Shunday oʻlka elga yor boʻlsin.

(H.Olimjon, “Oʻzbekiston”)

Oxirgi baytdagi oʻlka soʻzini vatan yoki diyor sinonimlari bilan almashtirib boʻlmaydi, chunki misralardagi boshqa soʻzlar ham oʻlka soʻziga shu darajada mos

<sup>17</sup> Хожиев А. Ўзбек тилининг синонимлар луғати. – Тошкент, 1974. – Б. 91

<sup>18</sup> Mahmudov N. Oʻzbek tili sinonimlarining kata izohli lugʻati. II jild. – Toshkent, Gʻafur Gʻulom, 2022. – B. 332 (489)





tushgani sababli, almashtirish natijasida fikr ravonligi buziladi”<sup>19</sup>. She’riy nutqda shuning uchun ham poetiklik masalasi juda nozik. Negaki, sinonimik qatordagi har bir so‘zning o‘rni almashtirilishi kutilgan emotsionallikni – natijani bermasligi mumkin. Bunday so‘zlar shu nutqning asosi hisoblanadi:

Ular shu bog‘larda o‘ynab-kulardi,  
Og‘ushim ularga maskan bo‘larda.  
Bunda o‘tkazardi oshiqlar visol –  
Damlarim xushxol.

(E. Vohidov “Majmuntol”)

Bu she’riy parchada keltirilgan og‘ush, maskan, visol, xushxol kabi poetik leksemalar qo‘llanilgan. Ulardan og‘ush, maskan leksemalari ham sinonimik qatorni hosil qila oladi, lekin ulardan birortasini parchadan chiqarilsa, biz kutgan poetiklik yo‘qoladi yoki kutilgan natijani bermaydi. Shuning uchun ham ularni sinonimik qatoridagi so‘zlar bilan almashtirib bo‘lmaydi.

She’riy nutqda, ko‘pincha, badiiy til vositalaridan foydalaniladi, chunki ulardagi obrazlilik, emotsionallik yaqqol namoyon bo‘lib turadi. Masalan,

Intizor har uy dilovar,  
Dilkusholar bazmiga.  
Gar oyoq qo‘ysa qabohat,  
Yig‘lagay ostona ham.

(E. Vohidov “Do‘st bilan obod uying”)

Parchada keltirilgan dilovar, dilkusho, qabohat so‘zlari badiiy nutqqa xoslanganligi uchun ulardagi poetiklik yaqqol ko‘zga tashlanadi. Bunday birliklar poetik leksikani tashkil qiladi. Bunda qo‘llanilgan dilobar va dilkusho leksemlari sinonimik qator hosil qila oladi.

Poetik sinonimiya – bunda so‘zlar hammasi she’riyatda qo‘llanadi va o‘ziga xos emotsional-ekspressivlikka ega bo‘lib boshqa sinonimlardan farq qiladi. Masalan: siyna, bag‘ir, qalb singari.

**Qalb** – bu so‘z yurak, dil, ko‘ngil so‘zlari bilan sinonim sof poetik so‘z bo‘lib, etimologiyasiga to‘xtaladigan bo‘lsak, arabchadan o‘zlashgan va boshqa sinonimlariga

<sup>19</sup> Умуркулов Б. Поэтик нутқ лексикаси Б.. – Тошкент: Фан, 1990. – Б. 31-32





nisbatan she'riyat gulshanida ko'p uchramiz, chunki boshqa sinonimik qatordagi so'zlarga nisbatan emotsional-ekspressivligi kuchli. Uning asl ma'nosi aylanish, burilish, o'zgarish, o'zgartirish<sup>20</sup>.

Ma'naviy xususiyatlari:

1. Ko'chma ma'noda – kishilarning ruhiy va ma'naviy dunyosi, ichki his-tuyg'ulari markazi ramzi

2. Aldam – qaldam, qing'ir qiyshiq ishlar qiladigan, nopok, qallob

**Qalb** qozoni qaynamas, qaynasa ham quyulmas (Maqol)

Qaro qoshing,

Qalam qoshing,

Qiyiq qayrilma qoshing, qiz.

Qilur qatlimga qasd kayrab — qilich qotil qaroshing, qiz.

Qafasda **qalb qushin** qiynab,

qanot qoqmoqqa qo'ymaysan.


qarab qo'ygil qiyo,

**qalbimni** qizdysin quyoshing, qiz.

(Erkin Vohidov, "Ishq savdosi")

Keltirilgan misralarda shoir qalb so'zini ikki xil ma'noda qo'llagan, ya'ni birinchi misrada qalb qushi birikma shaklida va qalb poetik so'z sifatida. Qalb qushi ko'chma ma'noda – jon, ruh ma'nosida ifodalanmoqda, chunki inson ruhi yurakda joylashadi deyiladi, shuning uchun ham qalb qushini qiynab degan misra keltirilmoqda, so'ngi qatorda esa bu so'z ko'ngil, yurak, dil ma'nosida ishlatilgan. Qalb so'zining **siyna** so'zi bilan sinonimiyasi mavjud, u ham sof poetik leksika qatorida turadi. Bu yerda keltirilgan so'zlardan dil, ko'ngil, siyna qalb kabi leksikalar yurak so'zidan o'zining bo'yoqdorligi bilan ajralib turadi. Yurak so'zi esa dominat so'zdir, chunki u umumnutqiy so'z hisoblanadi, ya'ni biz bu sinonimik qatorni yodga olganimizda birinchi bo'lib nutqimizda yurak so'zidan foydalanamiz va bu so'z uslub tanlamaydi, ammo keyingi keltirilgan sinonimlar esa badiiy uslubga xoslangan. Siyna so'zi yurak, dil, ko'ngil, qalb so'zlari qatori sinonimiyani tashkil etsa-da, uning ma'nosi sinonimik qatordan uzoqroqdir. Aslida bu so'z ko'krak, insonning ko'ksiga sinonim bo'la oladi. Qalb ham joylashish o'rni bilan va ijodkor tanlovi asosida qalb so'zini ham yoki siyna so'zini

<sup>20</sup> O'zbek tilining izohli lug'ati. O'zbek milliy ensiklopediyasi"





ham bir-biriga sinonim sifatida bir ma'noda qo'llagan bo'lishi mumkin. Lekin bu so'zlar misra yoki nutqdan tashqarida sinonimik qator hosil qila olmaydi. Ko'p hollarda insonning ko'ksiga ishora qiladi va shu so'z hosil qilgan sinonimik qatorda turadi.

Siyna - [sine] shaklida bo'lgan, bu so'z tojikchadan u harfini I ga o'zgartirish orqali o'zlashib qolgan<sup>21</sup>. Ko'krak, ko'ks, ko'krak qafasi, degan ma'nolari mavjud. Ko'chma ma'noda esa dil, qalb yurak, ma'nosida poeziyada ishlatiladi

Shuncha yuk mushkul emas, lekin ezar yer **siynasin** begunoh  
Ko'ksiga tomgan qatra-qatra qon yuki  
(Erkin Vohidov, "Davron yuki")

Shoir Erkin Vohidov o'z she'rida bu so'zni ko'chma ma'noda qo'llagan va poetiklikni hosil qilgan. Aslida insonda siyna bo'lishi mumkin. Lekin ijodkor bu leksemani yer leksemasi bilan yonma-yon qo'llab **metafora** ko'chimini yaratgan. Siyna so'zi qalb ma'nosida foydalanilgan, ammo shoirning "Quyosh Maskani" she'rida u ko'krak ma'nosida qo'llangan.

Diyorim timsoli kekxa Tiyanshan,  
Cho'zib ikki daryo – ikki qo'lini.  
Uzatib turibdi Sharq-u G'arb tomon,  
Do'stlik kosasini – Orol ko'lini.  
O'lkamning tasviri o'xshaydi kuzga,  
Ne tong, keng olamga boqqan ko'zim ul.  
Yana yurtim uchun ne deyman o'zga,  
Mening hayotim ul, rizq-u ro'zim ul.  
Axir onaga ham sidq aylab,  
Bajo uni atamaslar oy yoki quyosh.  
Qoshida tiz chukib, ona, deb tanho,  
Indamay qo'yurlar **siynasiga** bosh.

(Erkin Vohidov, "Quyosh Maskani")

Ba'zan ijodkor individual mahorati bilan ko'plik va birlikdagi so'z ma'no

<sup>21</sup> Ozbek tilining etimologik lug'ati III- Jild





torayishi evaziga o‘zaro sinonimlik hosil qilganligini ham kuzatish mumkin:

Sevgi **asror**ini izlamay qo‘ying,  
Topilmas narsani qidirmoq nechun?  
Muhabbat **sir**ini bilolmay o‘tgan  
Karbalo dashtida ovora Majnun.

(Erkin Vohidov, “Sakkizinch mart”)

Qo‘llanilgan asror so‘zi sir leksemasining ko‘pligi hisoblanadi. Lekin misra tarkibida qo‘llanilganda sinonimlik hosil qilgan. Ularda asror leksemasida emotsional-ekspressivlik ancha yuqori. Shuning uchun ham bu so‘zga poetik leksika sifatida qaraladi.

### 3.2. Sinonimik qatorda poetik leksika masalasi

Sinonimlar masalasi o‘rganilganda sinonimik qator masalasiga tilga olinadi. Sinonimik qator o‘rganilar ekan unga turfa yondashuvlar asosida qarash mumkin. Negaki, sinonimik qator uslub jihatdan, salbiylik va ijobiylik jihatdan o‘rganilishi bilan birga poetiklik jihatdan ham tahlilga tortiladi. Chunki sinonimik qatorda sinonim sifatida kelayotgan har bir leksemaning o‘rganishi nuqtai nazaridan turli obyekt bo‘lishi mumkinligini nazarda tutmoq lozim bo‘ladi. Sinonimik qatorning o‘rganilishi bo‘yicha Alisher Navoiyning “Muhokamat-ul lug‘atayn” asarida berilgan izohni keltirish mumkin. Tilshunos olim F.Saidova bunga quyidagicha to‘xtalib o‘tadi:

1. Inchkirmak eng past yig‘i holatini quyidagi misralardan izlash mumkin:

Charx zulmidaki, bo‘g‘zumni qirib yig‘larmen,  
Igirur charx kibi inchkirib yig‘larmen.

Ma’nosi:

Charx zulmidan bo‘g‘zimni qirib yig‘larman,  
Yigiruy charx kabi g‘ing‘illab yig‘larman.

2. Istasam davr ahlidin ishqingni pinhon aylamak,  
Kechalar gah ingramakdur odatim, gah singramak.

Ma’nosi:

Insonlardan senga bo‘lgan ishqimni saqlashni istayman.

Shu sababdan kechalari ingramoq goh singramoq odatga aylandi.



3. Zohid ishqin desaki, qilg'ay fosh,  
Yig'lamsiniru ko'ziga kelmas yosh.

Ma'nosi: Zohid odam ishqini hammaga ko'rsatishni xohlab yig'lamsirasa-da, ko'ziga yosh kelmaydi.

4. Ul oyki kula-kula qirog'latti meni,  
Yig'latti meni demayki, siqtatti meni.

Ma'nosi:

U oy yuzli kula-kula o'ziga rom etdi,  
Yig'atdi demangki, balki undan ham zo'ri siqtatdi.

5. Ishim tog' uzra har yon ashk serobin surmakdur,  
Firoq oshubidin har dam bulut yang'lig' o'kurmakdur.

Ma'nosi:

Uning ishqida mening ishim qon yig'lamoq,  
ayriliq azobida har dam bulut kabi o'kirib yig'lamoqdir.

6. Navoiy, ul gul uchun hoy-hoy yig'lama ko'p,  
Ki ha deguncha ne gulbun, ne g'uncha, ne gul bor.

Ma'nosi: Ey, Navoiy, bu gul uchun ko'p hoy-hoy yig'lama, chunki bir zumdan keyin na buta, na g'uncha, na gul qoladi.

Navoiy faqat "yig'i" so'zi va unga berilgan misollar bilan cheklanmaydi. Bundan tashqari asarda "ichish" so'zining turli darajalinishlarini ko'rsatib beradi<sup>22</sup>. Alisher navoiy sinonimik qatorning har ma'no nozikliklariga alohida to'xtaladi.

Sinonimik qatordan mohirona foydalanishni Erkin Vohidov ijodida ham ko'plab uchratishimiz mumkin. Ishq, muhabbat, sevgi bu sinonim qatorda ishq so'zi sof poetik so'z, ammo muhabbat so'zida ham poetiklik sezilib turadi, sevgi so'zlari esa umumnutqiy sinonimiyadir. "O'zbek tili sinonimlarining katta izohli lug'ati"da ham muhabbat va ishq so'zlarida kitobiylik ta'kidi mavjudligi aytib o'tilgan<sup>23</sup>. Ammo ularni ham ma'noviy xususiyatiga ko'ra darajalash mumkin. Bu yerda sevgi – dominant –

<sup>22</sup> Саидова Ф. Луғатларда синоним лексемалар талқини. Ф.ф.ф.д. ...дисс. Автореферати. – Гулистон, 2023. – Б. 59-60

<sup>23</sup> Mahmudov N. O'zbek tili sinonimlarining kata izohli lug'ati. II jild. – Toshkent, G'afur G'ulom, 2022. – B. 116





bosh so‘z bo‘lsa, muhabbat va ishq so‘zi bo‘yoqdor, kitobiy leksemdir, shunga qaramay ishq so‘zi bu leksemalar ichida eng yuqori bo‘yoqdorlikka va ta’sirchanlikka ega leksema hisoblanadi.

Sevgi kelsa qaddi yo ham yosh bo‘lur,  
Sevgisiz jonona haykaltosh bo‘lur.

(Erkin Vohidov, “Sevgi kelsa)

Chin muhabbat ming jafoga dosh berar,  
Lek xiyonatga u bebardosh bo‘lur.

(Erkin Vohidov, “Sevgi kelsa)

Ishq yo‘lin firdavs yo‘li deb anglagil,  
Pok diling, Erkin, bu yo‘lda bosh bo‘lur.

(Erkin Vohidov, “Sevgi kelsa)

**Ishq-u** hajr olamga meros, bo‘yla merosdur azal,  
Bizga Farhodan fidolik, bizga Majnundan junun.

(Erkin Vohidov, “Sevgi otashi”)

She’riyat olamida ko‘plab so‘zlar qo‘llanadi ularning hammasi ham poetik leksema sanalmaydi, ammo qachonki, shoir tomonidan bo‘yoqdorligi, ta’sirchanligi oshirilsagina poetik leksema sifatida ishlatilgan deya olamiz. Masalan: **kabutar** so‘zini olaylik qushning nomi, lekin bu so‘z. Erkin Vohidov ijodida poetik leksema bo‘lib kegan.

Anov chamanlarda gul terardilar,

Anov tosh ustida o‘tirardilar


Ikki qalb go‘yo qo‘sh **kabutar** misol

Tillarida bol...

(Erkin Vohidov, “Majnuntol”)

Bu yerda ijodkor umumnutqiy so‘zni poetik leksemaga aylantirgan bo‘lsa, yana o‘sha she’rning ozida visol, oshiq, og‘ush kabi sof poetik leksemalardan foydalangan.

Ular shu bog‘larda o‘ynab kulardi ,





Og‘ushim ularga maskan bo‘lardi .

Bunda o‘tkazardi oshiqqlar visol –

damlarin xushhol

(Erkin Vohidov, “Majnuntol”)

O‘zbek tilida gul, sunbul, nargiz, sarv, oy, suyosh, guncha nihol so‘zlari o‘simlik, daraxt va osmon jismlari atamasi bo‘lganligi uchun predmetlik ma’no ifodalaydi. Predmetlik ma’nosiga ko‘ra poetik nutq uchun neytral, stilistik xususiyatga ega emas. Bu so‘zlardagi ma’lum an’anaviy poetik ma’noning mavjudligi, ularni stilistik jihatdan poetik nutq jarayonida alohida ajralishini ta’minlagan. Yorning qomatini sarvga (sarvdad), sochini sunbulga (sunbulsoch), qoshini qalamga (qalamtosh) qiyoslanishi natijasida, sarv (daraxtning nomi), sunbul (o‘simlik nomi) obrazli fikr ifodalagan, poetik obraz yaratgan. Shuningdek, ko‘zni narkaz (nargiz)ga, labni g‘unchaga, yuzning gulga o‘xshatilishi natijasida nargiz (o‘simlikning bir turi), g‘uncha, gul so‘zlari poetik ma’no kasb etadi. Erkin Vohidov “Buloq” nomli she’rida gul so‘zini ikki xil ma’noda qo‘llaydi, birida o‘simlik nomi bo‘lsa, boshqa misrada esa mashuqa manosida qo‘llaydi.

Allakimning kutishini bilmaysan.

Derazangni chertib senga ilk bahor,

Bir dasta **gul** tutishini bilmaysan.

Sen ham uni, u ham seni ko‘rmagan,

qayerdadir yashar lekin dunyoda.

Bog‘lar kezib hech **gulga** yuz burmagan,

U sen uchun har kimdan ham ziyoda...

Uchrashuvga oshiqadi dugonang,

qalb orzikib, yor oldiga chopadi...

Qayerdadir seni izlar parvonang,

U albatta seni izlab topadi.

(Erkin Vohidov, “Buloq”)

Demak, Gul leksemasi o‘zbek adabiyotida asosan uch xil ma’noda qo‘llanadi. Jumladan: gul – o‘simlik, gul – yuz, gul – mashuqa, lekin Alisher Navoiy asarlari lug‘atida gul so‘zini ko‘plab ma’nolarda qo‘llanganligi aytib o‘tilgan. A.Nurmonov o‘zining “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” kitobida shunday keltiradi: “Shuningdek,



yuqorida aytib o'tilgan iboralarning aksariyatini ulug' Navoiy sinonimiya vositasida turli variantlarda ishlatgan: gul, chechak, vard, shugufa kabi. Shu bilan birga, gulga oid ko'pchilik iboralardan omonimiya yordamida turli ma'nolar hosil qilgan: gul (chechak), gul (bezak), gul (yashnamoq), gul (mahbuba), gul (go'dak), gul (umuman inson), gul (qizamiq) singari. Buyuk shoirning asarlarida gul tushunchasidan foydalanish ko'lami katta va keng...<sup>24</sup>. Lug'atlarda gul so'ziga quidagicha ta'rif beriladi: **Gul** I 1 O'simliklarning gulbarg, changdon va gulkosadan iborat bo'lgan urug'lanishga xizmat qiluvchi qismi. Jiyda guli. Paxta guli. **gul** II 1 Qizamiq, qizilcha va sh. k. kasalliklar bilan og'riganda badanga toshadigan mayda qizil toshma. Chaqaloqqa gul toshibdi, aylanay<sup>25</sup>. Gul leksemasining omonimi bo'lgani kabi obrazlilik, poetiklikni ifoda qilganligi sababli poetik leksika deya qarash mumkin. Negaki, mumtoz adabiyotda gul, mashuqa, yor leksemalari o'zaro sinonimik qator hosil qiladi. Sinonimik qatorda qo'llanilgan bu so'zlarning barchasi poetik leksema hisoblanadi. Faqatgina gul leksemasi kontekstda qo'llanganda poetiklikni yaqqolnamoyon qiladi, shuningdek, bu leksemadagi obrazlilik va ramziylik uni poetik leksika qatoridan o'rin olishini ta'minlagan.

Ko'pgina poetik so'zlarning ma'lum poetik talablar natijasida poetiklashgan varianti vujudga kelgan. Masalan: vasl – visol, shabboda – shabada, so'zla – so'yla, oshyon – oshiyon kabi. Bu xildagi so'zlar ham asosan fonetik jihatdangina farqlanadi va poetik nutq jarayonida o'ziga xos vazifa bajaradi.

Sen yiroqda,  
Yoring yiroqda,  
O'rtanadi joning firoqda.  
Tugab borar bardosh – saboting,  
Uchay desang yo'qdir qanoting.  
Sevar yoring **vasliga** mushtoq  
Kechalaring o'tadi uyg'oq...  
Ammo g'amdan boshingni bukma,  
Shaxlo ko'zdan yoshingni to'kma.  
Dilbar, buni firoq dema hech,  
Yorim mendan yiroq dema hech.

<sup>24</sup> Нурмонов А. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент : «ИЛМ ЗИЙО» – 2013. –Б. 182

<sup>25</sup> Ҳожиёв А. Ҳозирги ўзбек тили фаол сўзларининг изоҳли луғати. –Тошкент : Шарк, – 2001. –Б. 71



Chunki oro kirib joningga,

Bag‘ring bir kun kelar yoningga.

(Erkin Vohidov, “Firoq haqida”)

Siz **mohitobonsiz, malaksiz, pari**

Eng ulkan daxriylar topgan **sanam.**

Siz buyuk davrimning fidoyilari

Ahli donishlargaeng munis hamdam

(Erkin Vohidov, “Olimlarning rafiqalariga”)

Yuqorida keltirilgan misralarda **sanam, mohitobon, pari, malak** kabi leksemalar sinonimik qatorni hosil qilgan. Bu she‘rda shoir poetik leksikadan unumli foydalangan va emotsional-ekspressivlikni vujudga keltirgan. Tog‘ri, **sanam, mohitobon, pari, malak** kabi so‘zlar turli narsalarning talqini bo‘lsa-da, bu so‘zlar badiiy adabiyot olamida insonlarga nisbatan, aniqrog‘i, yorga nisbatan ishlatiladi. Jumladan, sanam so‘zi tarixda asosan sig‘iniladigaan bud bo‘lgan, ammo yillar o‘tib she‘riyatda bu leksema qizlarni tariflash uchun ishlatila boshlandi. Aslida zardushtiyalar dinida sig‘iniladiga kichik haykalchalar nomini bildirgan. Shu kabi pari ham faqat afsonalarda uchraydigan, insonlar ongidagina mavjud behad chiroyli obrazlar adabiyotda poetik leksemaga aylanib ketdi. Til taraqqiyoti natijasida e‘zozlash, farishta, chiroy semalari sanam leksemasining tarkibiga singishib ketdi. Shuning uchun ham g‘oyat chiroyli, guzal ma‘nolarida sanam leksemasini qo‘llash mumkin. Mohitobon ya‘ni moh oy degan ma‘noni anglatadi. Tilimizda chiroyli kishilarga qizlarga nisbatan oydek o‘xshatishi ishlatiladi. Xalqimizda oy go‘zallik ramzi sifatida talqin qilinadi. Oy umumnutqiy leksema bo‘lsa, moh kitobiy bo‘yoqqa ega. Shuning uchun ham mohitobon poetik leksika hisoblanadi. Bu ikki leksema pari, malak leksemalari bilan sinonimlik hosil qilganligi sababli bir sinonimik qator hisoblanadi. Keltirilgan barcha leksemalar poetik leksemalar hisoblanadi.

Hozirgi she‘riyatda faol uchraydigan bir qator fonetik so‘z variantlari poetik nutq jarangdorligini kuchaytirishga xizmat qilgan. Keyingi yillar she‘riyatda bunday so‘zining bundoq variantining qo‘lanilishi ancha faollashib bormoqda. Bu xususiyatlar shundoq, shunaqa, bunaqa, bundoq so‘z variantlarida ham mavjudligi seziladi. Keyingi yillarda bunday shakllarning qo‘llanilish darajasi tobora kengayib bormoqda. Bu shaklning poeziya tilida faollashishi, asosan, E.Vohidov ijodida keng uchraydi.



Ikki kuch bor – Yurak va asl,  
Ikki yonga tortuvchi meni,  
Ular **bundoq** bo‘lsa noahil,  
qay birini tutay izmini?

(Erkin Vohidov, “Yurak va aql”).

Yurak, ko‘ngil, dil, qalb sinonimik qatordada ham yurak leksimasi umumnutqiy leksema sifatida bosh so‘zni ifodalab keladi.

Jahonda toki bunyodsən  
Ki, nomi odamizodsən,  
Yurakdek tinmagan aslo  
Bu qo‘llardir, bu qo‘llardir.

(Erkin Vohidov, “Qo‘llar” qasida)

Yurak leksemasi poetik leksema bo‘lmasligi mumkin, ammo she‘riy parchada petiklikni ifodalaydi. Poetilik va poetik leksema ikki narsa deya yuqorida ta’kidlab o‘tildi. Yurak leksemasiga nisbatan ko‘ngil leksemasida kitobiylik, bo‘yoqdorlik yuqori ekanligi ko‘rinadi. Shuning uchun ham ko‘ngil leksemasini poetik leksema sifatida keltirish mumkin:

Neki maqsud bor ko‘ngilda,  
Pok ko‘ngil birlan etib,  
Neki baxt topsam jahonda,  
Bir o‘zing birlan topay:

(Erkin Vohidov, “Qo‘llar” qasida)

Yurak va ko‘ngil leksemalariga nisbatan dil leksemasida poetiklik yuqoriroq va bu yaqqol namoyon bo‘ladi. Shuning uchun ham sinonimik qatorda dil poetik leksema sifatida qaraladi:

Goh adolat bog‘ida,  
Piri adovat gohida,  
O‘z diling dargohida





Shayton o'zing, g'ilmon o'zing

(Erkin Vohidov, "Inson" qasida)

Bu sinonimik qatorda dil va qalb leksemalarida nisbatan bo'yoqdorlik yuqori. Mavjud o'rganishlarda sinonimik qatordagi bu ikki leksemada emotsionallik ancha yuqori. Shuning uchun ham bu ikki leksemaga poetik leksema sifatida qaraladi. Shoir bu sinonimik qatordan shoir unumli va mahorat bilan foydalanadi:

El aro topgaymi qadrin  
So'z ko'ngil ummonida  
Marvarid tutgan sadafdek  
Oncha berkinmay turib?!

Bu zamon daryosi tezdin,  
Ahli she'r istar zilol,  
So'z netib ruhbaxsh bo'lur,  
Dilkosada tinmay turib.

Qalb bu ohangar o'chog'i,  
Unda so'z so'zonadir,  
Qayda keskir bo'ldi shamshir,  
O'tga solinmay turib.

(Erkin Vohidov, "Dur bo'lib tomgaymi so'z...")

Mumtoz adabiyot tilida bu sinonimik qatorga ramziy ma'noda ishq mayi to'ldiriladigan jom, kosa sifatida qaralishi yuqorida ta'kidlandi. Mazkur parchada ham bunga ishora qilgan holda dilkosa so'zi qo'llanilgan.

Umuman olganda Erkin Vohidov o'z ijodida tilning barcha imkoniyatlaridan mahorat bilan foydalanadi. So'zlarga ajib sinoat sifatida qaraydi va uning bor jilvasini ko'rishga, o'quvchiga ko'rsatishga harakat qiladi. Shuning uchun ham dunyoning eng ajib, eng sirli va sehirlil sayohatlardan biri so'z olamiga sayohatdir, deya to'g'ri ta'kidlaydi.<sup>26</sup>

Shunday ekan, Erkin Vohidov ijodida poetik leksikaning turfa variantlari,

<sup>26</sup> Эркин Воҳидов. Сўз латофати. – Тошкент: Ўзбекистон, 2018. – Б. 7 (216)





turlarini uchratish mumkin. Zero, g'azallar, muxammaslar yozishi asnosida poetik leksikaga juda ko'p va xo'p murojaat qiladi. Ulardagi tarixiylik va obrazlilikning o'ziga xos jihatlarini ko'rish, kuzatish mumkin. Shuning uchun ham ulardagi kontekstual sinonimik qatordagi poetik leksemlar ham uchrashi tabiiydi. Bunday vositalar shoir she'rlarning asosi bo'lib xizmat qilgan.



**Research Science and  
Innovation House**





MUNDARIJA


№	Maqola nomi va muallif(lar) F.I.SH.	Betlar
1.	Иқтисодчи талабаларнинг хорижий тилни ўзлаштириш хусусиятлари ва касбий фаолиятида хорижий тилни билишнинг ўрни Абдимуродова Шахноза Анвар Қизи	5-8
2.	SUPPURATIVE EPIDEMICS ASSOCIATED WITH DENTURE USE: DANGEROUS CONSEQUENCES OF POOR ORAL HYGIENE Allamurodova Bakhtigul Boymurodovna Khayitova Mehrgul Alijon qizi	9-12
3.	STRATEGIES IN TEACHING GRAMMAR TO SECONDARY SCHOOL STUDENTS Xomidjonova Gavharoy Xayrullo qizi	13-17
4.	Kashtachilik san'atining zamonaviy talqini: Estetik meros va dizayndagi interpretatsiya yondashuvlari Ho'jamurodova Sevinch Abdilmajidovna	18-20
5.	RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR YORDAMIDA YASHIL IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI Eshmurodov Xurshidbek Farhod o'g'li	21-25
6.	JIGARDA METABOLIZMLANUVCHI ANTIBIOTIKLAR VA ULARNING GEPATOTOKSIK TA'SIRI Fazliddinov Janobiddin Zaynobiddin o'g'li. Pardayev Musobek O'ktamovich Islamova Kamola Akramovna.	26-37
7.	STAFILOKOKK INFEKSIYALARINING ZAMONAVIY DIAGNOSTIK USULLARI Pirimqulov Jumaniyoz Ravshan o'g'li Elmurodova Sarvinoz G'ulomjon qizi Boltayev Komljon Sultonovich	38-41
8.	ФАРМАКОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ НОВЫХ ТРИАЗОЛЬНЫХ СОЕДИНЕНИЙ: МОЛЕКУЛЯРНОЕ МОДЕЛИРОВАНИЕ И АНАЛИЗ ADMET Бекмуродова Малика Рузимурод кизи Эшмурадов Куёшбек Санжар угли	42-50



	Тошкуллов Хасан Шавкат угли Тоиров Достон Рустамович	
9.	PEDAGOGICAL FOUNDATIONS FOR DEVELOPING CRITICAL THINKING SKILLS AT THE PRIMARY EDUCATION LEVEL Qurboniyozova Mardona Fayzulla qizi	51-53
10.	AI Listening in Low-Resource Classrooms: Offline Tools and Their Effectiveness Baxramova Malika Muzaffarovna	54-57
11.	BOLALARDA KITOB O'QISHGA MOTIVATSIYANI OSHIRISHNING PSIXOLOGIK MEKANIZMLARI M.B.Saidmuratova	58-61
12.	ЎЎЗА КЎСАГИНИНГ ЧАНОҒИ, ЧИГИТИ ВА ТОЛАСИ НАМЛИГИНИНГ ЎЗГАРИШИ ВА УНГА ДЕФОЛИАНТЛАРНИНГ ТАЪСИРИ У.З.АБДУРАХМАНОВ, М.М.УБАЙДУЛЛАЕВ	62-68
13.	BUG'DOY NALARIDA XLOROFILL MIQDORI Z.B.Alloberganova., K.S.Atajanova., G.U.Rustamova.	69-72
14.	ТЕХНОЛОГИИ ПРОИЗВОДСТВА КЛАДОЧНЫЙ РАСТВОРОВ ДЛЯ КЛАДКИ СТЕН ИЗ СИЛИКАТНОГО КИРПИЧА Рахимов Элбек Рахимович	73-80
15.	“ТОМИР TANQISLIGI ANEMIYASI: TEMIR YETISHMOVCHILIGI ANEMIYASI HAQIDA” Meliqulov Javlonbek Ulug'bek o'g'li Kuliyev Ozodjon Abdurahmonovich	81-83
16.	IMOM BUXORIY SHAXSIYATI, ILMIY MEROSI VA UNING ISLOM OLAMIDA TUTGAN O'RNI Elboyeva Iroda Azim qizi	84-88
17.	“Viruslar keltirib chiqaruvchi yuqumli kasalliklarning virusologik diagnostikasi” Ziyodullayeva Iroda Baxriddinovna	89-97
18.	“Gripp va paragripp infeksiyalarining virusologik diagnostikasi” Ziyodullayeva Iroda Baxriddinovna	98-104
19.	Nemis tili darslarida olmosh so'z turkumini o'rgatish usullari Bozorboyeva Gulshan Tohir qizi D.A.Jumaniyazova	105-108



20.	<b>DEVITAL DAVOLASH USULLARI</b> <b>Kurbanova Aziza Kuvandikovna</b>	<b>109-116</b>
21.	<b>Boshqaruv kadrlarini tayyorlashning tashkiliy-iqtisodiy strategiyalari va modernizatsiya mexanizmlari</b> <b>Sevara Palvonova</b>	<b>117-124</b>
22.	<b>Sinonim leksemalarda poetiklikning namoyon bo‘lishi</b> <b>Diyora Begjigitova Abdimannob qizi</b>	<b>125-143</b>
23.	<b>Mundarija</b>	<b>144-146</b>



**Research Science and  
Innovation House**

